



SCIENCE SHINE ILM NURI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNAL | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- *specific and technical directions*
- *social directions*
- *directions of philology*
- *pedagogic directions*
- *directions of discovery and invention*
- *natural science majors*

Issue 8
July 31
2023



<http://science-shine.uz>



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue 8.

31. 07. 2023





International
scientific journal
“SCIENCE SHINE”

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

Jurnal bir oyda bir marta
chop etiladi.

Jurnal

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi

Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2023-
yil 16-fevralda

№063974 sonli
guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan

Maqola ko‘chirilib
bosilganda, manba
ko‘rsatilishi shart

Aloqa uchun:

Telefon: +99899 011 6303

E pochta:

scienceshine@mail.ru

Veb sayt:

<http://science-shine.uz/>

Tahrir kengashi:

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

Namangan davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasida mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna

*Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti*

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna

O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasida dotsenti

Abdullayev Ravshan Inomjon o‘g‘li

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi

G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi

Namangan davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasida o‘qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi

Farg‘ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasida o‘qituvchisi



AMIR NASRULLOXON SHAXSIYATI: UYDIRMA VA HAQIQAT

Quvonchbek Salimjon o‘g‘li Qo‘shboyev

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti magistranti

quvonchbekqoshboyev@gmail.com

Annotatsiya: Buxoro amiri Nasrulloxon shaxsiyati uzoq yillar mobaynida turli xil adabiyotlarda qora bo‘yoqlarda tasvirlanib kelindi va xalq ongida “daxshatli va qonxo‘r”, “botur qassob”, “qassob amir” kabi obrazlarni shakllantirildi. Amir Nasrulloxon shaxsiyati aslida qanday bo‘lgan? rostan ham “qonxo‘r va qassob amir” bo‘lganmi?! Ushbu maqolada shu kabi savollarga javob izlaymiz.

Kalit so‘zlar: Nasrulloxon, daxshatli va qonxo‘r, botur qassob, qassob amir, Buxoro.

Annotation: The personality of Bukhara emir Nasrullah Khan has been portrayed in black colors in various literatures for many years, and images such as "terrible and bloodthirsty", "brutal butcher", "butcher emir" have been formed in the minds of the people. What was the personality of Amir Nasrullah Khan? Was he really a "bloodthirsty and butcher prince"?! In this article, we are looking for answers to these questions.

Keywords: Nasrullah Khan, terrible and bloodthirsty, brave butcher, butcher emir, Bukhara.

Buxoro amirligida qat‘iy markazlashtirish siyosatini olib borgan, turli xil separatistik kayfiyatdagi kuchlar qarshiligini sindirishga harakat qilgan, o‘z siyosatida butun Movarunnahr va Xorazmni yagona davlat ostida birlashtirishga urungan, ushbu rejasini to‘liq amalga oshira olmagan bo‘lsada qisqa muddatga bo‘lsa ham butun Movarunnahrni birlashtirishga erishgan Buxoro amirining hayoti turli qora bo‘yoqlarda tasvirlab kelingan. Nasrulloxon ko‘p yillar mobaynida xalq ongida “daxshatli va qonxo‘r”, “botur qassob”, “qassob amir” kabi obrazlarni shakllantirishdi. Amir Nasrulloxon rostan ham “qonxo‘r va qassob amir” bo‘lganmi?! Tarixga xolis nazar solamiz. Ko‘plab adabiyotlarda Amir Nasrullo shaxsiyati qora bo‘yoqlarda tasvirlanib kelingan, jumladan, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklardan birida quyidagi ma‘lumotlarni ko‘rishimiz mumkin: “...o‘taketgan shuhratparast va ichi qora Nasrullo hamma narsadan shubhalanar va hech kimga ishonmas edi. Nasrullo qonxo‘rligi bilan nom chiqargan edi. Shu sababdan unga



“qassobning boturi” deb laqab qo‘yishgan”¹. Bundan tashqari professor A.Sagdullayev boshchiligidagi bir guruh tarixchi olimlar (B.Aminov, O‘.Mavlonov, N.Norqulov) tomonidan yozilgan “O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti” 1-qismida ham ushbu fikrlarni uchratishimiz mumkin: “O‘z akalari (Husayn va Umar) ni o‘ldirib, Buxoro taxtini egallagan Amir Nasrullo Buxoroning eng shavqatsiz va qonxo‘r hukumdori sifatida tarixda qoldi...o‘z dushmanlarida qo‘rquvni kuchaytirish, o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun Buxoroda har kuni ko‘plab kishilarni qatl ettirib turgani uchun uni “qassob amir” deb ham ajratadi².

Tarixchi Mirzo Shams Buxoriy XIX asrning 20-yillarida yuz bergan siyosiy voqealarning bevosita ishtirokchisi, hokimiyat uchun kurashda Amir Haydarning har uchala o‘g‘li (Husayn To‘ra, Amir Umarxon va Nasrulloxon)ga yordam bergan va uch hukumdorning xizmatida ozmi-ko‘pmi muddat bo‘lgan. U o‘zining “Buxoro, Qo‘qon va Qoshg‘arning ayrim voqea-hodisalari bayoni” asarida, Amir Nasrulloxonning Buxoro taxtini egallash va Amir Umarxonni hokimiyatdan ag‘darib tashlash jarayonida 7-8 ming kishi xalok bo‘lganligi, o‘z hukumdorligining dastlabki oylarida har kuni 50-100 kishini qatl ettirib turganligini yozadi va ushbu fikrlarga tarixchi A.Zamonov quyidagicha fikr bildiradi: “Mirzo Shams Buxoriyning mazkur davosi mubolag‘adan boshqa narsa emas. Chunki, munshiy va tarixchi Buxoriy Umarxonga xayrixoh, Nasrulloxonga esa muholifatda bo‘lgan. U Amir Nasrullodan qochib Shahrisabzga keladi va bu erda 11 oy yashagach Qo‘qonga u erda yurgan Umarxon huzuriga boradi. Agar ushbu ma‘lumotlarni inobatga oladigan bo‘lsak, uning Nasrulloxon faoliyatini haddan tashqari qora bo‘yoqlarda tasvirlagani sabablari oydinlashadi³.

Bundan tashqari Amir Nasrulloxonni qora bo‘yoqlarda tasvirlashiga boshqa sabablarni ham keltirib o‘tishadi. Jumladan, Amir Haydardan keyin taxtni egallagan Husayn To‘ra 78 kunlik humronlikdan keyin to‘satdan vafot etkanida Amir Nasrulloning qo‘li borligini, bundan tashqari ikkinchi akasi Amir Umarxonni ham Nasrulloning o‘zi o‘ldirgan degan fikrlar ham mavjud. Masalan, tarixchi Mirzo Abdulazim Somiy shunday fikrlarni ham bayon qilgan. Dastlab Husayn To‘raning o‘limiga to‘xtalib o‘tsak. A. Vamberi o‘zining “ Buxoro yohud Movarunnahr tarixi” asarida quidagi jumalarni keltirib o‘tadi: “Otasi tiriklik vaqtida Qarshi hokimi bo‘lib turgan paytda (Amir Nasrullo) nufuzli kishilarni o‘z tomoniga og‘dirish yo‘li bilan

¹ Shamsutdinov.R, Karimov.Sh, Ubaydullayev.O‘. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari).-T.: “Sharq”,2010.-B.87

² Аминов.Б, Ў. Мавлонов. Ў, Норқулов.Н. «Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти». 1-қисм.-Тошкент: Академия, 2000.Б.196

³ Замонов.А. Урта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари.-Тошкент: “BAYOZ”,2019.-Б.100-101



alday boshladi va erishdi ham. Mo‘tabar kishilar orasida eng muhumlari qo‘shbegi Hakimbiy va Hisor hokimi Mo‘minboylar edilar. Garchi ular, shariy valiyahdning xizmatida, keyin podshoh Amir Husaynning mamuriyatida bo‘lsalar ham, ammo uning taxtdan tushurilishi va o‘limining bosh sababchilari shulardir⁴ deya qayt etadi. Bu bizda ozgina shubhalarni uyg‘otishi mumkin, biroq yangi tatqiqotlar natijasida ko‘plab ma‘lumotlar aniqlangan. Xususan Q.Rajabovning “Nasrulloxon” tarixiy risolasida Amir Husaynning vafot etkanidan bir necha yil keyin Buxoroga kelgan A.Byo‘rnsning uch jildlik “Buxoroga sayohat...” kitobida Amir Husaynning o‘limini jahon tarixshunosligida ilk marotaba yoritib, uning qo‘shbegi Hakimbiy tomonidan taomga qo‘shilgan og‘u natijasida vafot etkanini keltirib o‘tadi.⁵ Biroq, uning aynan Nasrulloxon buyrug‘i bilan amalga oshirilganligi noma‘lum. Shunisi aniqki, Nasrulloxon ham uning o‘ldirilishiga qarshilik qilmagan. Umarxonga keladigan bo‘lsak, Tarixchi Mirzo Salimbek o‘zining “Kashkuli Salimiy...” asarida keltirilishicha: “Amir Nasrulloxon xijriy 1242-yilda Buxoro saltanati taxtini egallagandan so‘ng, o‘zining birodari Umarxonni Hirotga yubordi. U erdan Qo‘qonga keldi. Umarxon (Qo‘qon xoni 1810-1822) unga o‘z singlisini nikohlab berdi. Amir Umarxon Qo‘qonda vafot etdi⁶”, - deya o‘z so‘zlarini keltirib o‘tadi. A. Vamberi esa uning Qo‘qonda vabo kasalligiga chalinib vafot etkanini qayt etkan. Bundan shuni anglash mumkinki, Umarxonning o‘limiga birodari Nasrulloning aloqasi bo‘lmagan.

Tarix sir-sinoat va jumboqlarga to‘la, ularni echishda tarixchidan kuchli aql va xolislik talab qilinadi. Muayyan bir davrni va o‘sha davrdagi shaxslarni yoritishda o‘sha davr nuqtai nazaridan xolisona yondoshish muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro amiri hisoblangan Nasrulloxon o‘zining hukumronlik davri mobaynida ulkan ishlarni amalga oshirdi, bularga tarix guvoh. Hukumdor sifatida dushmanlariga shavqat qilmadi va bu yo‘l orqali o‘z xalqi va o‘z mamlakatini ham himoya qildi. Bu davrlarda ba‘zi kamchilik va xatolarga ham yo‘l qo‘ydi. Biroq tarixchi sifatida muayyan shaxsning faoliyatini tahlil qilishda zamonasozlik qilmasdan, ularga asossiz ayblar qo‘ymasdan, ular yashab o‘tkan sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda holis baholasak ayni muddao bo‘lardi. Zero yosh avlod o‘zining bobokalonlari haqida faqat qora bo‘yoqlarda tasvirlangan va yomon ishlari bilan to‘lib toshkan ma‘lumotlar bilan tanishmasdan, ularning ham qilgan ezgu ishlari, botirliklari, ko‘rsatgan jasoratlari haqida ham bilishlari lozim.

⁴ Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. 2-жилд. –Т.: Инфо сапитал груп,2019. Б.174-175

⁵ Ражабов Кахрамон. Амир Насруллох Баходирхон (тарихий рисола). –Т.: АБУ МАТБУОТ CONSALT, 2011. Б.6

⁶ Мирзо Салимбек.Кашкули Салимий Таворихи Муттакадимин ва Муттахирын.-Бухоро: Бухоро,2003.-Б.297



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аминов.Б, Ў. Мавлонов. Ў, Норқулов.Н. «Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти». 1-қисм.-Тошкент: Академия, 2000. -Б.196
2. Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. 2-жилд. –Т.: Info capital group,2019. -Б.174-175
3. Замонов.А. Урта аср тарихий шахслари ҳаётининг айрим номаълум саҳифалари.-Тошкент: “БАЁЗ”,2019.-Б.100-101
4. Мирзо Салимбек.Кашкули Салимий Таворихи Муттакадимин ва Муттахири.-Бухоро: Бухоро,2003.-Б.297
5. Ражабов Кахрамон. Амир Насруллоҳ Баҳодирхон (тарихий рисола). –Т.: ABU MATBUOT CONSALT, 2011. -Б.6
6. Shamsutdinov.R, Karimov.Sh, Ubaydullayev.O‘. Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari).-Т.: “Sharq”, 2010. -Б.87



KORRUPSIYA DAVLAT VA JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TO‘SIQ BO‘LAYOTGAN XAVFLI JINOYATDIR

Xojabay Kabulov Aldashovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,yu.f.n.

kxojabay@gmail.com

Gulzira Abatbaeva

Qoraqalpoq davlat universiteti, Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqola muallifi tomonidan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan keng kamrovli islohotlar, ushbu sohadagi muhim tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning amalga oshirilishi, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini shakllantirish, shuningdek, ushbu xavfli illatga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar AQSh, Germaniya, Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiya va boshqa davlatlar konunchiligi va tajribasida samarali qullanilayotgan huquqiy mexanizmlarning zamonaviy preventiv usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, ijtimoiy xavfli illat, manfaatlar to‘qnashuvi zamonaviy preventiv usullari haqida, davlatlarning inqirozga uchragani, halollik vaksinasi, huquqiy savodxonlik, poraxo‘rlik.

Annotation: The author of the article discusses the wide-ranging reforms implemented in the field of preventing and combating corruption in our country under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, the implementation of important organizational and legal mechanisms in this field, the formation of a culture of intolerance against corruption in society, as well as the role of foreign countries in the fight against this dangerous evil. Modern preventive methods of legal mechanisms effectively used in the practice and experience of the USA, Germany, Sweden, Finland, Norway and other countries are discussed.

Key words: corruption, socially dangerous vice, modern methods of preventing conflicts of interest, challenging the state, honesty vaccine, legal literacy, bribery.

Insoniyat jamiyati bugungi rivojlanish jarayonida ko‘plab yutuqlarga erishib, yuqori natijalarni qo‘lga kiritib kelmoqta. Yutuqlar bilan birga ayrim salbiy ijtimoiy illatlar ham rivojlanib, borgan sari o‘zining xavfli oqibatlarin yanada yaqqoliroq ko‘rsatmoqda. Korrupsiya ham unga bog‘liq bo‘lgan boshqada xavfli jinoyatlar



bugungi kunda dunya axolisini o‘ylandirip turgan ana shunday yoqimsiz ijtimoiy illatlardan biri bo‘lib, olimlar va har bir davlat oldiga yangi vazifalar kuymokda.

Korrupsiya har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta zarar keltirib, davlatning konstitutsiyaviy asoslarini va konun ustuvorligini kushsizlantirib inson hukuk va erkinliklarining buzilishiga olib keladi.

Mana shu yoqimsiz ijtimoiy xavfli illat sababli ko‘plagan davlatlarning inqirozga uchragani o‘tmish tarixdan ma‘lum. Qator xalqaro huquqiy xujjatlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasini ratifikatsiya qilish va davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi ko‘rashish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga oid xalkaro standartlar belgilangan[1]. Jumladan 2008-yilda O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasini ratifikatsiya qildi hamda davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirishga kirishildi. 2010-yilda O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘ining Istanbul harakat dasturiga qo‘shildi. Ayniqsa, 2017-yil 3-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingani ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari mustahkamlandi[2]. Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a‘zolari, ta‘bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”[3], deb ta‘kidlagan edi.

Prezident Sh.Mirziyoevning rahnomaligida 2017-yili e‘lon qilingan Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi bulgan 2022-yilning 28-yanvarda e‘lon qilingan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, Taraqqiyot strategiyasining 4-maqсадida davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish, 84-maqсадida korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni

bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish belgilab qoyildi. Shu bilan birga, mazkur strategiya xujjatning 83-maqsadida davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish belgilangan bo'lib, unga ko'ra, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkklarini deklaratsiya qilish tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladigan vazifalar, shuningdek mazkur maksadda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda ochiqlikni ta'minlash va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi[4] deb belgilandi. Alohida ta'kidlash lozimki qonunchilikda davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida o'z mansabdor shaxslari va xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini oshirishda zarur chora-tadbirlar ko'rish majburiy etib belgilab kuyilganligi, shuningdek davlat organida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini kuchaytirishda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunning[5] qabul qilinishi xalkimizga katta ruxiy madad buldi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishni jadallashtirish maqsadida, so'nggi yillari strategik jixatdan muxim davlat dasturlari xam qabul qilindi.

Prezidentimizning 2021-yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-sonli qaroriga[6] muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib bugungi kunda samarali faoliyat yuritmokda.

Korrupsiya muammosi xalqaro miqyosda ayrim olimlar, siyosatchilar va xukukshunoslar tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzu hisoblanmokda.

Taraqqiy topgan xorijiy davlatlarning manfaatlar to'qnashuvini boshqarishga oid tajribalari shu jumladan huquqiy normalarini o'rganish natijalari ularning ayrimlari korrupsiya balosiga o'z vaqtida muvaffaqiyatli kurashib, ijobiy natijalarni qo'lga kiritayotganligini kursatmoqda. Shu o'rinda aytish joyzki, xorijiy ilg'or davlatlar tajribasida unchalik samara bermaydigan, konun ijodkorlari tomonidan korrupsion jinoyatlar tarkibini dekriminallashtirish, liberallashtirish jarayonlari, doymiy o'zgartirilib turiladigan turli xil chiroyli huquqiy me'yorlarning ishlab chiqilishi demokratik isloxotlar jarayoniga to'siq bo'layotgan bunday xavfli salbiy hodisani bartaraf etish tugul, kamaytirishga ham ta'sir qilolmas ekan[7].

Misol tariqasida butun jahonda korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar tajribasini kurib chikishga xarakat qilayliq. Amerika Qo'shma Shtatlarida korrupsiyaga qarshi qonunlar haddan ziyod qat'iyiligi bilan tavsiflanadi. Turli ko'rinishdagi korrupsiya –poraxo'rlik, kikbeking (bitim ishtirokchisiga noqonuniy pullarning bir qismini to'lash) va boshqalar uchun – pora miqdorining uch baravarida



jarima yoki 15 yil qamoq jazosi yoki bir vaqtning o'zida har ikkala jazo chorasi, og'irlashtiriladigan holatlarda – 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi[7]. Germaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Bunga ishonch raqamlari orqali anonim xabarlarni berish tartibining joriy etilishi va boshqa profilaktik chora tadbirlar yordam berdi. Bunga ilm-fanning ham jiddiy ta'siri bo'ldi, xususan, olimlar tomonidan o'tkaziladigan ilmiy va amaliy tadqiqotlar orqali korrupsiyani keltirib chiqaradigan shart-sharoitlar va poraxo'rlarning pora olish va berish usullari bo'yicha ham katta tajriba to'plandi. Hozirgi kunda Germaniyada korrupsiya sivilizatsiyalashgan shakllarda namoyon bo'lmoqda: Bu davlatda har qanday korrupsion harakatlar va sxemalarga qarshi tura oladigan eng innovatsion chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqilgan. Ular orasida quyidagi jazo turlari mavjud: - ozodlikdan mahrum qilish. Jinoyat qanchalik jiddiy bo'lganiga qarab, jinoyatchiga olti oydan 10 yilgacha qamoq sanksiyasi beriladi. Bunday jinoyat bilan ushlangan shaxs kelgusida konunda ko'rsatilgan lavozimlarga ishga joylasha olmaydi; - mol-mulkni musodara qilish, noqonuniy yo'llar bilan qo'lga kiritilgan hamma narsa davlatga suzsiz kaytariladi. Bu kabi jazodan qo'rqib, ko'plab potensial jinoyatchilar chiziqni kesib o'tishga jur'at eta olmaydilar. Barcha ma'lumotlar bazalariga huquqbuzar haqidagi ma'lumotlarning kiritilishi, mehnat shartnomasining bekor qilinishi, kelajakda huquqbuzarning yaxshi ish topishini deyarli imkonsiz qiladi. Korrupsiyaga jiddiy to'siqlar yaratish maqsadida mamlakatda tizimli va mustakil ishonch telefonlari ishlaydi va har qanday oddiy nemis fuqarosi qo'ng'iroq qilib, korrupsiya holati haqida xabar berishi mumkin. Shu bilan birga, qo'ng'iroqning anonimligi 100% kafolatlanadi[9].

Shvesiya davlati tajribasini kursak, bu davlat nafaqat Yevropadagi, balki butun jahonda korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan hisoblanadi. Shvesiya davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatning asosiy omili – Shvesiya jamiyatining ta'limidir. Bu, asosan, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq. Ta'limda asosiy e'tibor bolaning dunyoqarashida halollik, kattalarga hurmat, shu jumladan, ota-onalarga bo'lgan muhabbat bo'yicha barqaror qadriyatlarni shakllantirishga qaratiladi. Foyda (daromad) topish va muvaffaqiyatga erishishda mehnatsevarlik va halollik, kasbiy o'sishga doimiy intilish, tejamkorlik va hushyorlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik, xususiy mulkning muqaddasligi va daxlsizligi – bu shved jamiyatida yoshlikdan singdirilgan shved axloqining asosiy tamoyillaridir. Kasbdagi burchni bajarish Shvesiyada inson axloqiy hayotining eng yuqori vazifasi sifatida qaraladi. Odamlarga har doim shartnomalarga rioya qilish...pora berishdan butunlay qochish, har doim, har jihatdan halol bo'lish kerakligi



va eng muhimi, poraxo‘rlik jamiyatda bo‘lmasligi kerakligi o‘rgatiladi[10]. Bundan tashqari, davlat xizmatchilari tomonidan davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimi ham to‘liq korrupsiyadan xoli. Shvesiyaning har bir fuqarosi (shu jumladan, jurnalistlar) har qanday davlat idorasiga qo‘ng‘iroq qilishi yoki yozma ravishda murojaat qilishi va rasmiy hujjatni talab qilishi mumkin. Bu ish yozishmalari, taklifnomalar, hukumat shartnomalari haqida ma‘lumot bo‘lishi mumkin. Davlat hujjatlariga jamoatchilikning kirish prinsipi (shv.Offentlighetsprincipen) 1766 yildan buyon mavjud bo‘lib, bu matbuot erkinligi bo‘yicha dunyodagi birinchi qonun hujjatlaridan biridir[11]. Shunga o‘xshash koidalar Norvegiya davlatining konunchiligida xam belgilangan bulib ushbu davlatda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligining siri shaffoflik (oshkoralik) da yotadi. Unda, davlat byudjeti mablag‘lari xarajatlari bilan bog‘liq barcha hujjatlar ochiq. Internet va bosma ommaviy axborot vositalarida chop etiladi va bunda har bir fuqaro mablag‘larning nimaga va qancha miqdorda sarflanishi bo‘yicha ma‘lumot olishi mumkin. Shaffoflik barcha fukarolarning ishchilarning daromadlari ham ochiq manbalarda bor bulib, ularning ish haqi va bankdagi hisob-varag‘i to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mahalliy soliq xizmati veb-saytida mavjud[12]. Yevropa mamlakatlari orasida davlat boshqaruvi tizimiga korrupsiya eng kam ta‘sir qiladigan davlatlardan biri Finlyandiya bo‘lib, bu mamlakatda korrupsiya darajasining pastligiga ta‘sir qiluvchi muhim omil aholining eng kambag‘al va boy qatlamlari daromadlari o‘rtasidagi tafovutning juda kichikligi[13]. Shuni xam aloxida ta‘kidlash joyzki “Korrupsiyaga qarshi kurashishning Finlyandiya modeli”ning eng muhim o‘ziga xos xususiyati, jamiyatda har qanday korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan o‘ta murosasizlik sharoitlarini yaratilganligi bilan birga Finlyandiya davlatining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillari hokimiyatni boshqarish jarayonining shaffofligi, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta‘minlash, davlat xizmatchilarining mas‘uliyati va halolligi masalasi Konstitutsiyada mustahkamlanganligidir[14].

Xorijiy va milliy tajribani, shu jumladan huquqiy normalarini o‘rganish va taxlil kilishdan kelib chikkan xolda quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirib o‘tish mumkin:- birinchidan: korrupsiyaga qarshi kurashishga barcha davlat organlari, fukarolik jamiyat institutlari, umuman, har bir fuqaro o‘zining konstitutsiyaviy burchi sifatida safarbar etilishi va jamiyat a‘zolarining ongida korrupsiyaga qarshi murosasizlik madaniyatini kuchaytirishimiz zarur. Sababi jamiyatda har bir fuqaro, yosh avlodda «korrupsiyaga qarshi kuchli immunitet shakllanmas ekan, jamiyat bu jirkanchli balodan xech qutula olmaydi»[15]. Ikkinchidan, milliy qonunchiligimiz va amaliyotimizga bebaxo qadriyalarimiz va mentalitetimizni xisobga olgan xolda



xorijiy ilg'or davlatlar AQSh, Germaniya davlatlari konunchiligi va tajribasida samarali qullanilayotgan, har qanday korrupsion harakatlar va sxemalarga qarshi tura oladigan eng ilg'or innovatsion chora-tadbirlar majmuilari, ya'ni asosiy va kushimcha jazo turlari, mulkiy javobgarlik choralari kuchaytirish, ma'muriy jarimalarni o'rnatish tartibiga oid normalarni milliy qonunchiligimiz va amaliyotimizga kiritish ancha samaralidir;

Ushinchidan, Norvegiya, Shvesiya va Finlyandiya davlatlari konunchiligi va ilg'or tajribalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida beqiyos samara berayotgan mexanizmlar: ya'ni davlat byudjeti mablag'lari xarajatlarining barcha hujjatlaridan tortib Internet va bosma ommaviy axborot vositalarida chop etilishi, bunda har bir fuqaro mablag'larning nimaga va qancha miqdorda sarflanishi bo'yicha ma'lumotlari, barcha fuqarolarning ishchilarning daromadlari ularning ish haqi va bankdagi hisob-varag'i to'g'risidagi ma'lumotlar mahalliy soliq xizmati veb-saytida joylashtirilishi shuning bir birga dunyoda, bugungi kunda, raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha sohalarga keng joriy etilib, insoniyat hayot tarziga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishda samarali ishlarni yo'lga qo'yayotgan davlatlar tez taraqqiy yetayotgani kuzatilmoqda[16.245B.].

Insoniyat tarixida oltin qoida sifatida tan olingan korrupsiya darajasining pastligiga ta'sir qiluvchi birdan bir yagona omil aholining eng kambag'al va boy qatlamlari daromadlari o'rtasidagi tafovutning juda kichikligiga erishish mamlakatimizning Yangi Konstitutsiyasining asosiy g'oyasiga ko'ra davlatimiz siyosatining maqsadi va asosiy vazifasi bo'lishi maqsadga muvofiqdir[17].

Ushbu jarayonda muvaffaqiyatning yana bir takrorlanmas omillaridan biri Shvesiya davlatining yutugi bulgan jamiyatdagi ta'lim soxasidagi huquqiy tarbiyaviy mexanizmlarni, jamiyatda yoshlikdan singdirilgan shved axloqining asosiy tamoyillari, jumladan, yosh avlodning dunyoqarashida barqaror qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan halollik, kattalarga hurmat, foyda (daromad) topish va muvaffaqiyatga erishishda mehnatsevarlik va halollik, kasbiy o'sishga doimiy intilish[18],tejamkorlik va hushyorlik, mas'uliyat va tashabbuskorlik, xususiy mulkning muqaddasligi va daxlsizligi, kasbdagi burchni bajarish, odamlarga har doim pora berishdan butunlay qochish, har doim, har jihatdan halol bo'lish va eng muhimi, poraxo'rlik jamiyatda bo'lmasligi kerakligi o'rgatilishi xalqparvar davlatimizning muqaddas vazifasiga aylanmog'i zarur va millatimizning Yangi Axloq Kodeksini yaratish va ishlab chiqish taklif etiladi[19].

Umid qilamizki, ushbu taklif va tafsilyalar davlat va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi mazkur illatga qarshi kurashishning eng zamonaviy samarali huquqiy mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kabulov, X. A. ENSURING JUSTICE AND FREEDOM OF INFORMATION IN THE ACTIVITIES OF THE COURTS IS THE MOST IMPORTANT STRATEGIC TASK FOR THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN. *Science and Education in Karakalpakstan ISSN*, 2181-9203.
2. Kabulov , X., & Omirova , A. (2021). HUQUQIY ONG, BILIM VA YuKSAK HUQUQIY MADANIYA T JAMIYA TDA QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHNING KAFOLATIDIR. *Materiali konferensiy MSND*. vilucheno iz <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/mcnd/article/view/16909>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga MUROJAATNOMASI // www.nrm.uz URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_\(2020_yil_24_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar))
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022 yildagi // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 06.07.2021 y
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Kengashining 2022 yil 19 maydagi 4-sonli majlisida muhokama etilgan va nashrga tavsiya etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas'ul muharrir: A.Sh. Bekmurodov: – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 344 b., 20-b, 286-b.
8. Зарубежный опыт противодействия коррупции – Научно-исследовательский центр проблем национальной безопасности (нис-пнб.ру) 286-б.
9. Mas'ul muharrir A.Sh. Bekmurodov, L. Baxranov, G. Abdullaeva Musahhih A. Shorixsueva Sahifalovchi: R. Ikramov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik.. – Toshkent: "Akademiya", 2022. – 344 b.



10. Шурыгин, Ф. Ф. Антикоррупционная политика Королевства Швеция / Ф. Ф.Шурыгин. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 34 (220). — С.66-69. // [хттпс://молуч.ру/архиве/220/52431/](https://moluch.ru/archive/220/52431/) (дата обращения: 14.02.2022).

11. Mas'ul muharrir A.Sh. Bekmurodov,L.Baxranov, G.Abdullaeva Musahhah A.Shorixsieva Sahifalovchi: R.Ikramov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik.. – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 305- b.

12. Norvegiya (askjournal.kg).

13. Finlyandiya (hse.ru)

14. Mas'ul muharrir A.Sh. Bekmurodov,L.Baxranov, G.Abdullaeva Musahhah A.Shorixsieva Sahifalovchi: R.Ikramov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik.. – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 309- b.

15. Mas'ul muharrir A.Sh. Bekmurodov,L.Baxranov, G.Abdullaeva Musahhah A.Shorixsieva Sahifalovchi: R.Ikramov. Korrupsiyaga qarshinlar kurashish. Darslik.. – Toshkent: “Akademiya”, 2022. –15- b.

16. Kabulov , X. (2022). Sud xokimiyatining xakikiy mustakilligini ta'minlash va odil sudlovga erishishda yangi zamonaviy texnologiyalarning roli va ahamiyati. *Renessans v paradigme novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke*, (1), 245–248. <https://doi.org/10.47689/innovations-in-edu-vol-iss1-pp245-248>

17. Kabulov, X. PROSPECTS OF EFFECTIVE PROTECTION AND PROVISION OF CONSTITUTIONAL RIGHTS AND FREEDOMS OF CITIZENS DURING THE NEW DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN. *Science and Education in Karakalpakstan ISSN*, 2181-9203.

18. X.Кабулов.Конституционно-правовые основы судебной власти Республики Каракалпакстан. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2011 - №2. - С. 118-123.6 бет.

19. Кабулов, X. А. (2012). Судебная власт в Республике Каракалпакстан.(Историко-правовое исследование). Автореф. дисс... к. ю. н.



TRENDS OF BOOK PUBLISHING IN UZBEKISTAN

Yulduz Murotova Fakhriddin kizi

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, student of the Faculty of Library and Information Activities

Annotation. The article talks about publishing houses and publishing companies operating in Uzbekistan. Of course, the persons who have shown their work in the publishing activity are also recognized.

Keywords: Abdulmannop the secretary, publisher, Abdulla Nasirov, Turkdavnashr, Uzoquvpeddavnashr, "Teacher".

INTRODUCTION

PUBLISHING - Before the printing press appeared in the Tashkent region, the work of scribes and calligraphers played an important role in the preparation of books. In this regard, in Tashkent, Abdulvadud scribe (15-16th century), Abdulhaq scribe (1808-1886), Muhammad Yunus scribe (19th century), Abdulmannop scribe (1880-1945), Muhammad Shahmurad scribe (1850-1922), Sidkiy Khandayliqi (1884-1934) and others' activities are noteworthy. They developed the art of bookmaking in Tashkent - the creation, copying and decoration of handwritten books. In the treasury of the Institute of Oriental Studies of the FA of Uzbekistan, as well as in the library of the National Library of Uzbekistan, the library of the Office of Muslims of Uzbekistan, among other rare manuscript books, books prepared by Tashkent scribes are stored. As in the whole of Turkestan, the preparation of books by calligraphy continued for a long time in Tashkent, even after the invention of book printing, in the early days, books in Tashkent were reproduced by hand.

MAIN PART

Book publishing in Tashkent spread from the second half of the 19th century, after the conquest of Turkestan by Tsarist Russia. The first printing house in Tashkent was established in 1868 at the headquarters of the Turkestan military district, where the first printed book in Russian was published - the work of the Russian scientist N.A. Severtsov, who studied the fauna, geography and geology of Central Asia. After that, Tashkent became the center of book printing in Central Asia. In 1871, the first printed book in Uzbek (mainly intended for traders) - Sh. Ibrahimov's book "Calendar" was published in the Arabic alphabet. During this period, private printing houses began to appear: V.F.Pastukhov's printing house



(1876, from 1878 to the firm "Lakhtin and Pastukhov", from 1880 to S.I. Lakhtin's typolithography), I.Husanboyev (1883), O.A.Portsev (1888), F.H.Orifjonov (1889).), M. Bekmukhamedov (1908), I. Inog'omjonov (1914) typolytographies, etc. They publish artistic and educational literature in Uzbek and Russian languages. 1882 in Tashkent: "Sabot ul-Ojizin" by Sufi Olloyar, 1883: "Devon" by Navoi and Mashrab's poems, 1892: "Selected works" by Bedil, "Shahnoma" by Firdavsi, later works by Gulkhani, Muqimi, Furqat, Abdulla Avloni, S. Saidazizov textbooks, etc. In the 10s of the 20th century, companies engaged in book publishing and public distribution in Tashkent, etc. appeared. The companies "Madaniyat", "School", "Turkistan Library" are among them. Wealthy and enlightened people of Tashkent, prominent representatives of the Jadidist movement, as well as progressive Russian and Tatar intellectuals joined these companies. In the years before the October coup, 10 books were published in Tashkent with an average circulation of 10,000 copies per year; 13 printing and lithography works.

After the national-state demarcation in Central Asia (1925), the State Publishing House of Uzbekistan - Uzdavnashr was established on the basis of the Central Asian State Publishing House.

In the 1930s, the party's dominance in the ideological and political direction of publishing products was strengthened. In the second half of the 1930s, specialized network publishing houses of relevant people's commissars and organizations were established.

During the Second World War, publishing houses were rebuilt according to the needs of the front and the country. 8 independent publishing houses in Tashkent were merged into Uzdavnashr, and printing enterprises were also given to it. The publishing houses belonging to some institutions were closed. The publication of the book was drastically reduced.

In the post-war years, efforts were made to restore specialized publishing houses. 1950 "Uzo'quvpeddavnashr" (later "Teacher" publishing house) was restored; 1957 Literature and Art Publishing House (later Fafur Fulom Literature and Art Publishing House), 1959 Medicine Publishing House (later Ibn Sina Publishing House) and others. Publishing houses were opened. The publishing house's products were focused on serving the communist ideology. For this purpose, Marxist-Leninist works, socio-political literature were published in many titles and copies. At the same time, Alisher Navoi's 15-volume works, Hamza, Fafur Fulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Kamil Yashin, Mirtemir's selected works of writers, samples of world classic literature were released. In 1968, the General Editorial Office of the Uzbek Soviet



Encyclopedia (UzSE) was established to publish the Uzbek Soviet Encyclopedia. The 14-volume Uzbek Soviet Encyclopedia was published by this editor-in-chief in 1971-80. Since 1991, the General Editorial Office of UzSE has been called the General Editorial Office of Encyclopedias, and has become a center for publishing encyclopedic and reference literature, dictionaries.

But during the Soviet regime, the material and technical base of publishing houses in Uzbekistan was far behind the level of developed countries. Because of this, the printing quality of the printed books was poor. Not only the socio-ideological direction of the published books, but also the annual plans of the publishing houses were strictly controlled by the former Center. Local authors were not allowed to write textbooks on social sciences as much as possible (the textbooks published in the Center were mainly translated).

CONCLUSION

Publishers and printers are introducing modern publishing, printing methods, and new techniques to their fields. More than 1,290 printing companies operate in Tashkent. In particular, "Sharq" publishing-printing joint-stock company, "Uzbekistan" NMIU, "Teacher" NMIU, NMIU named after Gafur Gulom, "Yangiyo‘l matbaa servis" open joint-stock company and other large enterprises are working.

REFERENCES

1. "Tashkent" encyclopedia. 2009
2. "Khalk Sozi" newspaper, June 23, 2020. A license is no longer required for publishing activities.
3. Archive "President's decision regarding publishing activities was adopted. March 17, 2020.
4. <https://bugun.uz> The Law "On Publishing Activities" was adopted in Uzbekistan
5. "Yangi Uzbekiston" newspaper - What changes have occurred in the publishing activity?



REPORTING ON FINANCIAL RESULTS: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Sevinch Hamroyeva Hamroyevna

Tashkent State University of Economics Finance and accounting faculty

hamroyevasevinch1@gmail.com

Abstract: International Financial Reporting Standards (IFRSs) play an important role in the development of the international accounting system in the context of modernization of the economy. This article presents a second form of financial reporting: a comparative analysis of the preparation of a statement of financial performance based on national and international standards.

Keywords: financial reporting, International Financial Reporting Standards, financial results report, gross income statement, income, expenses

Аннотация: Международная система бухгалтерского учета в условиях модернизации экономики акционерные общества, коммерческие банки, страховые организации, в государственных хозяйственных обществах и крупных налогоплательщиках финансовая отчетность на основе международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). подготовка важна. Эта статья является второй частью финансового отчета. форма: рассмотрены особенности подготовки отчета о финансовых результатах на основе национальных и международных стандартов и их отличия. Разработаны практические рекомендации по приближению учета к МНХС и ВНМС.

Ключевые слова: информация, доход, бухгалтерская отчетность, бухгалтерская отчетность, международные стандарты, финансовые результаты, стоимость.

The integration of Uzbekistan into the world economy is also in the accounting policy requires important changes. In this respect, national the structure of the standards should be noted separately. Accounting to date more than 20 national accounting standards have been adopted and are being implemented. This procedure is certainly very important in assessing the financial situation and changes in it allows you to find answers to uncertainties. Including assets, income and recognition of costs, determination of the true value of property and fair valuation, composition of assets according to their liquidity and their reflection in financial statements determines the procedures for following general approaches. But at the same time accounting and financial reporting general in the standards used in foreign practice (МНХС). significant differences in requirements can be seen. This is definitely financial significantly affects the situation analysis and its content. "International financial reporting" of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4611 "On additional measures for the transition to decision was introduced on February 24,



20201 . The main purpose of the decision is financial foreign by accelerating the transition to international standards of reporting providing investors with the necessary information environment and international financial markets expanding access, as well as the areas of accounting and auditing improvement of the system of training specialists according to international standards is considered In developed countries, the main task of accountants is the state of the enterprise information obligations (financial, tax, customs, statistical reports through) not to solve but first of all property owner and managers aimed at solving tasks aimed at ensuring effective management.

It is currently being prepared for shareholders and other users in financial reports, which are transferred from country to country, in some cases accounting principles and rules used only in one country is being used. Thus comparability in accounting reports may not be enough. The disadvantage of this situation is that from the financial statement investment analysts and other users who use the report analysis in the process of making it, due to the fact that it is made according to different standards will have to spend. They are confused in the interpretation of reports they can also encounter. In connection with this process, the capital of the world effective competition in the market will deteriorate, and companies will conserve capital they will have to bear high costs. Most mainly due to the fact that the amount of profit is different for different countries trust in accounting reports is lost Similar aspects in the analysis of the financial situation and changes in it the superiority of content over form, which is an important principle of accounting can be explained by the principle. Financial reports of developed countries with economic entities in Uzbekistan. Other gross income according to MFRS includes the following

- No. 16 "Fixed assets" and No. 38 "Intangible assets"

Results of revaluation according to the MHRS:

- Pension in accordance with IHSS No. 1 "Presentation of Financial Statements". actuarial profits and losses on payments;
- In accordance with MXCC No. 21 entitled "Effect of exchange rate changes". recalculation of financial statement items for activities abroad resulting profits and losses;
- In accordance with the 39-MFHS entitled "Financial instruments: recognition and evaluation".

as a result of revaluation of financial assets available for resale profits and losses incurred;

- Profit on hedging instrument as a result of cash flow hedging and damages.

There is a big difference in the number of financial reporting forms and their names not observed. In this respect, it is prepared and presented internationally and in Uzbekistan. We will provide a comparative analysis of financial statements. Requirements for financial statements "Presentation of financial statements citing in

International Financial Reporting Standards (IFRS) No. 1 passed. If we look at international standards, the organization reports on accounting

It is called a financial statement, not a report. Income according to MXCC No. 1 and there are two ways of reflecting expenses: the first of them is gross income in the report on; the second through two reports - profit and loss a report reflecting the components (profit and loss report) and reflecting other income components, starting with profit and loss report (gross income report) is drawn up.

International standards of financial reporting and national accounting the form of the report on gross income prepared in accordance with the standards indicators of financial results of joint-stock companies is an important source of formation. This report is earnings income groups classified according to their sources and related expenses based on the principles of the ratio between groups. As this type of report is compiled based on international standards, it is one of the laws a number of changes should be made. MHXS and accounting in BHMS among the main methodological recommendations on the accounting policy for approximation the following can be distinguished:

- Reserves for receivables and loans issued in BHMS and MHXS use of a single methodology of creation; Profit or loss Net profit (loss) for the reporting period Each component of gross income - Other gross according to the method of proportional participation calculation of affiliated or partner organizations in income share

Total gross income

Non-controlling interest and capital profit or loss attributable to the founders of the company and total gross income creation of reserves in BHMS in accordance with the principles;

- regular inventory of reserves, excluding illiquid reserves release;
- Creation of a reserve for legal proceedings based on the principles of reserve of MHHSS;

- Unique to create and restore reserve for unused vacations application of the methodology.

References:

1. Жиянова Н.Э., Управление финансовыми рисками предприятия в современных условиях //«ИНТЕРНАУКА» Научный журнал №16(145) Май 2020 Часть

2. Ismanov, I. N., & Axmadaliev, B. (2021). Factors Influencing The Formation Of International Budget Accounting Systems. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(09), 21-30

3. Исмаилов, И. (2021). UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Scienceweb academic papers collection



BIR NECHA JINOYAT SODIR ETGANLIK TUSHUNCHASI VA BIR NECHA JINOYAT SODIR ETGANLIK UCHUN JAZO TAYINLASH TARTIBI

Anvar Esanov Shuxratovich

Buxoro viloyati prokurorining katta yordamchisi.

gmaa916147@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bir necha jinoyat sodir yetganlik tushunchasi va bir necha jinoyat sodir yetganlik uchun jazo tayinlash tartibiga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada “Bir necha jinoyatlar” va “Retsidiv jinoyat” jinoyat tushunchalari va uning zaruriy belgisi haqidagi ko‘plab olimlarning fikrlarini ham o‘rganib, o‘zining tegishli taklif va tavsiyalarini bergan.

Kalit so‘zlar: Bir necha jinoyat, sodir yetganlik, residiv, jinoyat, jazo, javobgarlik, shaxs, sud, jazo tayinlash, ijtimoiy xavfli.

Jinoyat sodir yetmoqchi bo‘lgan shaxs o‘z oldiga qo‘ygan jinoiy maqsadiga yerishish uchun odatda bir nechta harakatlarni amalga oshiradi. Uning sodir etgan harakatlariga va jinoyat sodir etish usuliga nisbatan jinoyat qonunchiligining turli moddalari yoki bir moddasining turli qisimlarida turli ta’sir choralari belgilangan bo‘lishi mumkin. Bunday hollarlarda, jinoyatchining sodir etgan harakatlarida bir emas bir nechta ijtimoiy xavfli qilmishning alomatlari mavjud bo‘ladi. Ya’ni, jinoyatchining har bir harakati jinoyat qonunchiligining alohida normasida belgilangan qoidani buzadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o‘rinlarda JK) ning 8-bobi *bir necha jinoyat sodir etish* deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob bir necha jinoyat sodir etish tushunchasi va ularga nisbatan jazo tayinlash asoslariga bag‘ishlangan. Ushbu bob, takroran jinoyat sodir etish (JKning 32-moddasi), jinoyatlar majmui (JKning 33-moddasi) va retsidiv jinoyat (JKning 34-moddasi) larni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2008-yil 5-maydagi “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi 13-sonli Plenum qarori 1-badida bir necha jinoyat tushunchasiga ta’rif berilgan bo‘lib, unga muvofiq, shaxs tomonidan har biri alohida jinoyat tarkibini tashkil etuvchi ikki va undan ortiq qilmish sodir etilishi bir necha jinoyat sodir etish deb hisoblanadi.

“Bir necha jinoyatlar” tushunchasi va uning zaruriy belgisi haqida ko‘plab olimlar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Masalan, “P.S.Dagelning fikriga ko‘ra, bir



necha jinoyat sodir etish deganda, “ikki yoki undan ortiq jinoyatlarni” yoki “bir necha jinoyatlarni sodir etish”ni nazarda tutadi.”⁷ Bu borada bir muncha o’zgacharoq fikr yuritadigan olim N.A.Bekbergenov tomonidan esa, bir necha jinoyat sodir etishda uning miqdor ko’rsatkichlari emas, balki har bir qilmishning mustaqil huquqiy ahamiyatga ega ekanligi, uning asosiy va zaruriy belgisi sifatida ta’kidlanadi.”⁸

Mening fikrimcha, yuqoridagi ikki tarif ham asoslidir hamda ushbu fikrlarda qandaydir bir-birini mutlaqo inkor etadigan farqlar mavjud emas deb hisoblayman. Negaki, P.S.Dagel bir necha jinoyat sodir etishni ikki va undan ortiq jinoyat sodir etish sifatida baholagan bo’lsa, N.A.Bekbergenov esa shaxsning harakatlarida bir necha jinoiy qilmishning alomatlari mavjud bo’lishini ta’kidlagan. Odatda, xorijiy davlatlarning jinoyat huquqida, shu jumladan O’zbekiston jinoyat huquqida ham har bir ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat sifatida e’tirof etilib, ularning har biri jinoyat qonunchiligida alohida modda sifatida mustahkamlangan. Bir necha jinoyat sodir etish atamasidagi “bir necha jinoyat” so’zining o’zi tushunchani mazmunan ifodalab turibdi. Agar, jinoiy harakatlarni bir necha jinoyat sodir etish deb baholashda qanday muammo yoki noaniqlik mavjud bo’lsa, unda bu muammo va noaniqlikka sabab qonun chiqaruvchi (qonun regulyatori) ning bu boradagi pozitsiyasi hamda uning izohida (yoki izohlamagani) dir. Chunki, muayyan bir harakat yoki harakatsizlik shaxs, fuqaro, jamiyat va davlatning huquqlari va manfaatlariga ziyon yetkaza boshlasa, u qonun chiqaruvchi tomonidan ijtimoiy xavfliligiga muvofiq, jinoyat deb e’tirof etilishi hamda bu holat jinoyat qonunchiligida alohida norma sifatida mustahkamlashi lozimdir. Bu harakatlar esa qonun chiqaruvchining zimmasiga yuklangan majburiyat hisoblanadi. Agar shaxs o’z harakatlari amalga oshirish davomida jinoyat qonunchiligida taqiqlangan turli normalardan (yoki bir normaning turli qismlaridan!) kamida ikkitasini buzsa – bu bir necha jinoyat sodir etish deb topiladi. M. Usmonaliyev fikriga ko’ra, “bir qancha jinoyat sodir etilgan deb topish uchun qilmishlarda quyidagi shartlar bo’lishi kerak:

shaxs tomonidan har biri mustaqil jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir etilgan bo’lishi kerak;

bunda jinoyatlarning bir vaqtda (jinoyatlarning ideal jami) yoki har xil vaqt (real jami) da sodir etilganligining ahamiyati yo’q;

⁷ Bekbergenov N.A. Назначение наказания по совокупности преступлений и приговоров.: Автореф. дисс. канд. юрид наук.-Казахстан: Алма-Ата, 2012.- С. 7

⁸ Bekbergenov N.A. Назначение наказания по совокупности преступлений и приговоров.: Автореф. дисс. канд. юрид наук.-Казахстан: Алма-Ата, 2012.- С. 7.

dastlabki sodir etilgan jinoyat bilan keyingi sodir etilgan jinoyat o'rtasida Jinoyat kodeksining 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tib ketmagan bo'lishi kerak;

shaxs ushbu jinoyatlarda bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida qatnashganligi, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, suiqasd qilish bosqichida to'xatilganligi yoki oxiriga etkazilganligining ahamiyati yo'q;

agarda shaxs Jinoyat kodeksining 64-68-moddalari asosida javobgarlikdan, 69-moddasi asosida jazodan ozod qilingan bo'lsa (150-156-moddalar bundan mustasno), jinoyat huquqida nazarda tutilgan bir qancha jinoyatlarni tashkil qilmaydi;

oldingi jinoyat uchun sudlanganlik muddati o'tmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan yangi jinoyat sodir etish ham bir qancha jinoyat sodir etish hisoblanadi"⁹.

Bir necha jinoyat tushunchasi jinoyatlar majmuyi, takroranligi va retsidiv jinoyatlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 32-moddasida takroran jinoyat sodir etish tushunchasi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra Jinoyat kodeksining Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasa, takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Tamom bo'lgan jinoyat ham, jazoga sazovor bo'lgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish ham, shuningdek ishtirokchilikda jinoyat sodir etish ham takroran jinoyat sodir etish deb topiladi. Demak, jinoyatlar takroranligi deganda shaxs tomonidan turli vaqtlarda qasddan sodir etilgan sodir etilgan ikki va undan ortiq jinoyatlar tushuniladi.

Yuqorida qayd etilgan modda hamda unga berilgan izohlardan kelib chiqib, jinoyatlar sodir etishda takroranlik belgisi mavjud bo'lishi uchun quyidagi zarur shartlar lozim degan xulosaga kelishimiz mumkin:

a) shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat Jinoyat kodeksining aynan bir moddasida nazarda tutilgan bo'lishi va unda bir xil jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan bo'lishi;

b) shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat Jinoyat kodeksining muayyan moddasi aynan bir qismida nazarda tutilgan bo'lishi va ushbu moddada turli jinoyat tarkiblari uchun javobgarlik belgilangan bo'lishi shart.

⁹ M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. - B. 231



O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2008-yil 5-maydagi "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi 13-sonli Plenum qarori 2-bandi 6-qismiga muvofiq, jinoyat qonunida alohida nazarda tutilgan ayrim hollarda (masalan, Jinoyat kodeksining 118, 119, 189, 211, 212-moddalari ikkinchi qismlari, 213-moddasining uchinchi qismi, 276-moddasining ikkinchi qismi) shaxs tomonidan qasddan Jinoyat kodeksining turli moddalarida nazarda tutilgan ikki va undan ortiq jinoyat sodir etilishi ham takroran jinoyat deb topiladi. Shuningdek, Plenum qarorining ushbu bandida davomli jinoyat va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar, shuningdek, agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo'lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmasligi alohida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 33-moddasiga ko'ra, shaxs Jinoyat kodeksining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoiy qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo'lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi. Bunda jinoyatlar shaxs tomonidan qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etishili ahamiyat kasb etmaydi. Jinoyatlar majmui va takrorlanganligi tariqasidagi bir necha jinoyatlar uchun umumiy belgi bu shaxsning sodir etgan jinoyatlaridan birortasi uchun ham sudlangan bo'lmasligi hisoblanadi.

Retsidiv jinoyat. Shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi (ushbu norma Jinoyat kodeksining 34-moddasida mustahkamlab qo'yilgan). O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining 2008-yil 5-maydagi "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi 13-sonli Plenum qarori 16-bandiga ko'ra, retsidiv jinoyat bir necha jinoyat turlari ichida eng xavflisi hisoblanadi. U shaxs tomonidan jinoiy xulq-atvor davom ettirilayotganligidan dalolat beradi. Bunda shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning qasddan sodir etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, faqat ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan bir necha jinoyat uchun sudlanganlik holatini mavjudligi jinoyat retsidivini tashkil etmaydi.

Sudlanganlik holatining tugallanishi va qonunda belgilangan tartibda olib tashlanishi jinoyatlar majmui, takrorlanganligi va retsidiv jinoyatni istisno etuvchi holat hisoblanadi.



“Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash (JKning 59-moddasi) bir qancha jinoyat sodir etishning – jinoyatlar majmui ko’rinishiga taalluqlidir”.¹⁰ Sud jazo tayinlashda sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi. Ushbu qoida “Sudlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni, Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to’g’risida”gi 1-sonli Qarori va Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi “Sud hukmi to’g’risida”gi 7-sonli Qarorlarida sudlar tomonida jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda amal qilish lozim bo’lgan asosiy talab sifatida mustahkamlab qo’yilgan. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 59-moddasida bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash tartibi mustahkamlangan bo’lib, ushbu moddaning talabiga muvofiq, shaxs Jinoyat kodeksining Maxsus qismning turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan bo’lib, ulardan birortasi uchun ham sudlangan bo’lmasa, sud ushbu jinoyat kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, har qaysi qilmish uchun jazo tayinlab, so’ngra tayinlangan yengilroq jazoni og’irrog’i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to’la yoki qisman qo’shish yo’li bilan jinoyatlar majmui bo’yicha jazo tayinlashi belgilangan.

Jinoyat kodeksining 59-moddasi talabidan ma’lumki, bir necha jinoyat turining aniqlanishi qilmishni to’g’ri kvalifikatsiya qilish uchun ham, qilmishga mutanosib jazo tayinlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, yuqorida ta’kidlanganidek, Jinoyat kodeksi 59-moddasida bir necha jinoyatlar uchun jazo tayinlashning quyidagi uchta usuli nazarda tutilgan: *yengilroq jazoni og’irrog’i bilan qoplash, jazolarni to’la qo’shish va jazolarni qisman qo’shish*. Sudning ushbu usullardan qay birini tanlashi esa, sodir etilgan qilmishning xususiyatlariga, ijtimoiy xavflilik va og’irlik darajasiga bog’liq hisoblanadi. Chunki, amaldagi jinoyat qonunchiligining talabiga muvofiq, sud tomonidan javobgarlikka tortilayotgan shaxsga bir muncha qulay bo’lgan tayinlangan yengilroq jazoni og’irrog’i bilan qoplash usuli faqatgina shaxs tomonidan sodir etilgan bir necha jinoyatning tarkibini ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatlar va uncha og’ir bo’lmagan jinoyatlar tashkil etgan taqdirda qo’llaniladi. Agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqal bittasi og’ir yoki o’ta og’ir jinoyat bo’lsa, Jinoyat kodeksning Umumiy

¹⁰ Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O’quv qo’llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. - B.114

qismida shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.

“Jazolarni qoplash deb – sodir qilingan jinoyatlar uchun tayinlangan turli jazo turlaridan eng o'g'irining muddati o'zgartirilmasdan boshqa jinoyatlar uchun ham yetarli miqdordagi jazo deb hisoblangan holdagi jazo tayinlanishiga aytiladi”¹¹.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, *yengilroq jazoning og'irroq'i bilan qoplanishni*, quyidagicha tushunishimiz mumkin: shaxs sodir etgan harakatlarida jinoyat kodeksining turli qismlarida jazo choralari nazarda tutilgan bo'lsa, shaxsga nisbatan sud tomonidan jinoyati uchun o'sha moddaning og'irroq qismida nazarda tutilgan jazo chorasini qo'llanilishi yengilroq jazoning og'irroq'i bilan qoplanish usuli hisoblanadi. Sud hukmda jinoyatlar majmui uchun qat'iy jazo tayinlashda ushbu jinoyatlarning eng og'iri uchun tayinlanadigan jazo miqdori va muddatidan kelib chiqadi. E'tibor berish lozimki, sodir etilgan jinoyatlar majmui katta ijtimoiy xavf tug'dirmasa yoki uncha og'ir bo'lmagan hollarda jazoni og'irroq'i bilan qoplash usuli qo'llaniladi. Qolgan hollarda to'la yoki qisman qo'shish usuli qo'llaniladi. Sud tomonidan jinoyatning og'irlik darajasini aniqlashda, Jinoyat kodeksining 15-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar klassifikatsiyasiga tayaniladi.

Jazolarni to'la yoki qisman qo'shish haqida fikr yuritishdan oldin, jazlarni qo'shish tushunchasi nimani anglatishini aniqlab olish lozimdir. “Jazolarni qo'shish deganda - turli jazo turlarini bir xil ko'rinishga aylantirib, ularning muddatlari qo'shilishiga aytiladi.”¹² Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, amaldagi jinoyat qonunchiligimizda bir necha jinoyat sodir etilgan hollarda, sodir etilgan har bir jinoyatga Jinoyat kodeksining tegishli moddasida belgilangan jazo choralari alohida tayinlanib, so'ng ular sudlar tomonidan qo'shib, mahkumga umumiy bir jazo tayinlanadi. bu boradagi xorijiy davlatlar qonunchilikdada belgilangan tartiblarga nazar soladigan bo'lsak, ularning ko'pchiligida jazolarni to'la yoki qisman qo'shish usuli mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin. (bu haqida quyida batafsil fikr yuritamiz) Shundan kelib aytadigan bo'lsak, jazolarni to'la va qisman qo'shish tushunchalari O'zbekiston milliy jinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Jazolarni to'la qo'shish deganda, jinoyatlar majmuidagi har bir jinoyat uchun tayinlangan alohida jazolarni to'liq qo'shish tushuniladi. Jazolarning qisman qo'shish

¹¹ Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. –B.115

¹² Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O'quv qo'llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. –B. 115



deganda esa, ikki yoki undan ortiq jinoyatlar jami bo'yicha jazo belgilashda sud muayyan jinoyat uchun tayinlangan jazolarni loaqal qisman qo'shishga majburligi to'g'risidagi qoida nazarda tutiladi. Bunda jazo turlarining yengil-og'irligi darajasi Jinoyat kodeksi 43-moddasining 1-qismida ko'rsatilgan ketma-ketlik bilan belgilanishini e'tiborga olinishi lozim. Jazolarni qoplashda uzil-kesil tayinlangan jazo, agar jinoyatlar jamini faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplab, sodir etilgan jinoyatlardan eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatidan yoki miqdoridan ortiq bo'lmasligi kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Jinoyat kodeksining 59-moddasiga muvofiq, agar jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatidan yoki me'yoridan ortiq bo'lmasligi lozim. Agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqal bittasi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, Jinoyat kodeksning Umumiy qismida shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, bir necha jinoyat sodir etilgan hollarda sud jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jinoyatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, Jinoyat kodeksining tegishli moddalarining sanksiyasida nazarada tutilgan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yoxud tegishli moddaning yengilroq jazoni belgilangan qismini og'irrog'i bilan qoplab jazo tayinlashi belgilangan.

Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlashga doir normativ-huquqiy hujjatlar haqida fikr yuritadigan bo'lsak, avvalo har bir huquqshunos huquqiy asos bu qonuniylik belgisi ekanligini yaxshi anglashini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Sud-huquq tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har bir harakati qonunda belgilangan huquqiy normaga asoslanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бекбергенов Н.А. Назначение наказания по совокупности преступлений и приговоров.: Автореф. дисс. канд. юрид наук.-Казахстан: Алма-Ата, 2012.- С. 7.



2. M.Usmonaliyev, P.Bakunov. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. - B. 231
3. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O’quv qo’llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. - B.114
4. Бозорова Г. Илмий нутқда учрайдиган айрим плеонастик бирликлар таҳлили //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.
5. Бозорова Г.З. ОАВда учрайдиган плеонастик бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oavda-uchraydigan-pleonastik-birliklarning-lingvopragmatik-hususiyatlari> (дата обращения: 10.04.2023).
6. Kadyrovna A. M., Zayniddinova B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.
7. Bozorov Zayniddin & Samandarova Gulnoz. (2020). Ideological movement of legends and traditions in the novel “Shaytanat” by Tohir Malik. Theoretical & Applied Science. 84. 1014-1016. 10.15863/TAS.2020.04.84.187.
8. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
9. Bozorova Gulmira Zayniddinova. Distinctive features of pleonasms in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. [Vol. 2 No. 14 \(2023\)](#): - P. 168-174.
10. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1
11. Bozorov Z.A. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 455-458. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).

XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA

Mehribon Jumaniyazova Baxtiyarovna

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot, uning xizmatlar sohasini rivojlantirishdagi roli, sanoat inqilobi va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli, xizmatlar sohasining transformatsiyasi sharoitida nimalarga ahamiyat berish, turizm, mehmonxona biznesiga kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish dasturlari va imkoniyatlari tahlili hamda Xorazm viloyatida turizm sohasi raqamlashtirilishi holati bo‘yicha bilimlar darajasi o‘rganilgan, shuningdek, mavjud tadqiqotlar tahlili asosida rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, xizmatlar sohasi, ijtimoiy media marketing, biznes-model, ERP tizim, turizm, turistik xizmatlar, raqamli marketing.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, xizmatlar sohasi, ijtimoiy media marketing, biznes-model, ERP tizim, turizm, turistik xizmatlar, raqamli marketing.

Xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti va turizm sohasi iqtisodiy faoliyatning eng istiqbolli turlaridan biridir. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish iqtisodiyoti tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va ulardan daromadlar ortib bormoqda. Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko‘ra xizmatlar ko‘rsatish iqtisodiyoti 150 dan ortiq turli xil xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, biznes xizmatlari, aloqa xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, ta‘lim xizmatlari, turizm va unga tegishli xizmatlar, transport xizmatlari, transport va dam olish hamda madaniy va sport tadbirlari singari turlari mavjud 1 . Shundan ko‘rinib turibdiki hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy faoliyatning asosiy turi hisoblanadi. Deyarli har bir kishi u yoki bu xizmatdan foydalanadi. Raqamli iqtisodiyot eng avvalo keng polosali internet portlarini yaratishni, optik tolali internet liniyalarini yotqizishni taqozo qiladi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart sharoitlar yaratish hozirda dolzarb hisoblanadi. Keyingi yillarda raqamli iqtisodiyot tushunchasi ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotida paydo bo‘ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Raqamli iqtisodiyotning inson hayoti barcha



jabhalariga ta'sirini sezish qiyin emas. Hozirgi kunda sayyoramizning ko'pchilik aholisi internetga kirish imkoniyatiga ega va raqamli xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti xizmatlaridan foydalanishi mumkin, ijtimoiy tarmoqlar, turli mesendjerlar allaqachon shaxslararo muloqotning asosiy ajralmas qismiga aylangan. Hozirda mamlakatimizda ham yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek "Yangi asrda raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida keyingi o'n yilliklarida xizmat ko'rsatish sohasi davlatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilab bermoqda. Sanoat va qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarning joriy qilinishi hamda ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi xizmatlar sohasini bandlikning asosiy manbaiga aylanib bormoqda. Servis sohasining rivojlanishi universal jarayon bo'lib, so'ngi o'n yillikda quyidagi tendensiyalar uyg'unligi bilan belgilanadi: - ijtimoiy hayot va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi; - barqaror rivojlanish, globallashuv hamda insonparvarlashuvning ijtimoiy iqtisodiy jarayonlari; - xizmat ko'rsatish tendensiyalari va gibrid mahsulotning paydo bo'lishi; - hamkorlik iqtisodiyoti va birgalikdagi iste'mol iqtisodiyotining rivojlanishi; Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida servis sohasini barqaror rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog'liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. Raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, kompaniyalarning asosiy aktiviga aylanib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o'ynaydi. Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta'minlaydigan texnologiyalar majmuasini o'z ichiga oladi. Yangi iqtisodiyotning raqamli infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi eng yangi raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: - katta ma'lumotlar texnologiyalari (Big Data) - blokcheyn texnologiyalari - narsalar interneti - neyron tarmoqlar (sun'iy intellekt) - virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari - 3D bosib chiqarish - mobil qurilmalar - aqlli sensorlar va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari, turizm xizmatlari raqamli



texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq yo'naltirilgan, xizmat ko'rsatish iqtisodiyotidagi ko'plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan. Raqamli texnologiyalar eng faol joriy etilayotgan sohalardan biri bu turizm xizmatlaridir. Turistik yo'nalishning jozibadorligini shakllantirish va turistlar oqimini ta'minlash uchun sayohatchi uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yaxshi axborot ta'minotini yaratish kerak. Olib borilgan kuzatuvlar natijasida sayohatni rejalashtirishda sayyohlarning 80% ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan va tanlangan manzilga oid video va fotosuratlarini o'rganadi, 86% sayohat paytida mobil aloqani asosiy narsa deb bilishadi, sayyohlarning 73% elektron bortga chiqish talonlari va chiptalar katta ahamiyatga ega deb hisoblashadi. Sayyohlarning 75 foizi saytlarida o'z sharhlarini qoldiradilar, 37% sayyohlar sayohat paytida smartfonlarida konserj xizmatiga mutoj, 69% o'zlari yetib borgan manzili haqida maksimal bo'lgan ma'lumot olishni xohlaydilar, o'rtacha hisobda turistlar sayohat paytida 17 ta turli xil mobil ilovalardan foydalanadilar

Xorazm viloyati hududi "Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan bo'lib, O'zbekistonning eng yuqori sayyohlik salohiyatiga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e'tirof etilishi hamda YUNESKO tomonidan butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi, nafaqat Xorazm viloyati, balki O'zbekistonning jahon turizm bozoriga dadil kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi. Shularni inobatga olgan holda ushbu sohada ham raqamli texnologiyalarni joriy qilish va undan samarali foydalanish orqali turizmni jadal rivojlanishiga erishish mumkin. 2021 yilda amalda viloyat bo'yicha umumiy qiymati 254,5 mlrd. so'm (o'z mablag'lari 218,4 mlrd. so'm, bank krediti 36,1 mlrd.so'm) miqdoridagi 47 ta loyiha amalga oshirildi va 468 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Jumladan, Xiva shahrida 8 ta mehmonxona va 6 ta oilaviy mehmon uyi, umumiy ovqatlanish shoxobchasi, Urganch shahrida 2 ta oilaviy mehmon uyi, kinoteatr, tibbiy klinika, restoran, va boshqalar ishga tushirildi. Viloyatda joylashtirish vositalari soni va infratuzilma ob'ektlari soni ham yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan hozirda joylashtirish vositalari soni jami 179 taga yetgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018 yilda 69 tani, 2019 yilda 152 ta, 2020 yilda esa 162 tani tashkil qilgan. Shundan: 79 ta mehmonxona, 83 ta oilaviy mehmon uylari, 2 ta mehmon uylari, 12 ta xostel va 3 ta boshqa joylashtirish vositalaridan iborat. 2021 yilda 61 ta sayyohlik tashkiloti faoliyati ro'yxatga olingan bo'lib, 2018 yilga nisbatan 1,7 barobarga o'sgan. 2018-2021 yillarda Xorazm viloyatining turictik salohiyati va infratuzilmasi holati

| Yil | Joylashtirish vositalari soni (ta) |
|------|------------------------------------|
| 2018 | 69 |
| 2019 | 152 |
| 2020 | 162 |
| 2021 | 179 |

162 179 Sayyohlik tashkilotlari soni jami (ta) 34 58 59 61 Zamonaviy turistik sinfga mansub avtotransport vositalari soni jami (ta) 34 133 293 303 Tegishli sertifikatlarga ega gid-ekskursovodlar soni jami(nafar) 103 114 114 138 Turistik axborot markazlar (ta) 4 12 12 17 Turistik yo`l ko`rsatkich belgilar (ta) 28 46 80 109 Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, viloyatga xorijiy va mahalliy sayyohlarni yanada ko`proq jalb qilish, turizm sohasida ko`rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko`lamini yanada oshirish, sayyohlar xavfsizligini ta`minlash maqsadida turizm sohasini raqamlashtirish bo`yicha ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida turizm sohasida qabul qilingan qarorlar va dasturlar doirasida, viloyatning sayyohlar ko`p tashrif buyuradigan hududlarida xorijiy sayyohlar uchun yanada qulayliklar yaratish maqsadida xorijiy kartalarga (Visa Card, Master Card, Amerikan Express, China Union Pay va boshqalar) xizmat ko`rsatuvchi avtomatlashgan 5 ta valyuta ayriboshlovchi bankomatlari, 6 ta terminallar, 21 ta "WIFI" nuqtalari o`rnatilib xizmat ko`rsatmoqda. Turizm sohasiga innovatsion texnologiyalarni keng tadbiiq qilish va shaffoflikni ta`minlash maqsadida Xiva shahri "Ichan-qal`a" davlat muzey qo`riqxonasida – "Muzeylarga kirish uchun elektron biletlar sotish va tashrif buyuruvchilarni hisobini yuritishni avtomatlashtirilgan tizimi (turniketlar)ni yaratish" loyihasining 1- bosqichi ishga tushirildi. "Ichan qal`a" hududiga kirish, muzeylarni va ayrim diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish uchun chiptalar yagona kassadan sotilishi va barcha muzey va diqqatga sazovor joylarga kirish ularning kirish qismlariga o`rnatilgan smartturniketlar orqali amalga oshirilishi joriy qilindi. "Wolsoft" korxonasi tomonidan Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ajratilgan grant mablag`lari asosida "Ichan-qala"ning 3D va VR BOX ko`rinishlari ishlab chiqilmoqda va bugungi kunda 9 ta asosiy obektdan 6 tasi raqamlashtirilgan. Ushbu loyiha "Ichan-qala" davlat muzey qo`riqxonasi hududida test rejimida tekshirildi. Shunday bo`lsada, viloyatda sohaning yanada jadal rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan ayrim sabablar ham mavjud.

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda hududdagi muammolar sifatida turizm xizmatlari raqamlashtirilishining jahon standartlaridan nibatan pastroq darajasi, qo`shimcha xizmatlar (transport, bank, sanitariya-epidemiologik va sug`urta xizmatlari) raqamlashtirilishi darajasi pastligi , to`g`ri raqamli marketing strategiyalari ishlab chiqilmaganligini keltirishimiz mumkin. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish kerakki, viloyatda turizm sohasini yanada jadal rivojlanishiga erishish uchun, ushbu sohada yetakchi bo`lgan davlatlar tajribalariga suyanish, marketing strategiyalarini to`g`ri tanlay olish lozim. Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, uni raqamli iqtisodiyot darajasiga olib chiqish, viloyatimizga xorijiy va



mahalliy sayyohlarni yanada ko‘proq jalb qilish maqsadida turizmga raqamlashtirilgan xizmatlar sifatini jahon andozalariga javob beradigan darajaga olib chiqish, raqamli marketing strategiyalaridan kengroq foydalanish ishlarini amalga oshirilishi zarur, deb hisoblaymiz. Viloyatda o‘tkaziladigan barcha madaniy tadbirlar va festivallar haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan veb-sayti ishlab chiqilishi, internet tarmoqi va OAV orqali reklamalarning ko‘paytirilishi turistlarning hududga nisbatan yanada qizishini orttiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha davlat o‘z rolini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi. Xizmatlar sohasini raqamlashtirish mehnat bozorida o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat bozorining tuzilishi ham o‘zgarib bormoqda, ayrim kasblarining yo‘qolib borishi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi bashorat qilinmoqda. Raqamli xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotida ishlash uchun yangi kognitiv, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli ko‘nikmalar talab qilinadi, ular raqamli iqtisodiyotda ishlashga qodir kadrlarni tayyorlash jarayonida shakllanishi lozim. Raqamli iqtisodiyot katta hajmdagi axborotni qayta ishlashga asoslanganligi sababli, xodimlarning raqamli kompetensiyalari, xavfsizligi, ishonchliligi, katta hajmdagi axborotni uzoq muddat saqlashi alohida ahamiyat kasb yetadi. Zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha manbalar, qulay tabiiy-iqlim sharoit, boy tarixiy madaniy me‘ros umuman olganda yuqori salohiyat mavjud. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, sohani raqamlashtirish va uni yanada takomillashtirish yalpi hududiy mahsulotning oshishiga, ishsizlikning qisqarishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘rsida”gi PQ-5113-sonli Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 26 fevraldagi “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi 55-sonli qarori. //www.lex.uz
4. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.



Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
(E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3),
March, 2023 509

5. Морозов М.А., Морозова Н.С., Развитие цифровой сервисной экономики и ее влияние на рынок труда // Сервис plus. Т. 12. 2018. № 1. С. 100–107 DOI: 10.22412/1993-7768-12-1-10

6. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. World scientific research journal, 4(2), 7-11.

7. Umarov O.S. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish tendensiyalari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal. №3 may-iyun 2018 yil

8. Servis plus Tom 12 2018 №1 / Service plus Volume 12 2018 #1

9. <http://www.xorazmstat.uz>

AYOLLARNING OILA MUSTAHKAMLIGIDA TUTGAN O'RNI

Nodira Shodiyeva Normamatovna
Nigina Raxmanova Aminjanovna
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi
nodirashodiyeva168@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada ayol kishining o'ziga xos vazifalari, qachonki oila mustahkam va barqaror bo'lsa, shu jamiyat taraqqiy etishi, oila insoniy fazilatlarining shakllanishi maskani yoki, aksincha, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o'chog'i ham bo'lishi ham mumkin ekanligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, ona parvarishi, jamiyat, juftlik.

Annotation: This article talks about the specific tasks of a woman in the family, when the family is strong and stable, this society will progress, the family is the place for the formation of human qualities, and on the contrary, it can also be the center of social problems in the society.

Key words: family, maternal care, community, couple.

Oila masalasi qadimdan, insonlarni qiziqtirib kelgan, chunki inson hayotini oiladan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Oila jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lib bugunga qadar turli davrlarni bosib o'tdi. Har qanday mamlakat taraqqiyoti o'sha yurtning oilalari mustahkamligi, oilaning barqarorligi va manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Oila tinchligi va farovonligi jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy muhitiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Oilaning yana bir muhim funksiyasi – farzandlar tarbiyasi. Demak jamiyat a'zolarining jismoniy va ma'naviy kamolotiga xizmat qilish, uni yagona maqsad sari birlashtirish, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdan iborat ma'suliyatdir.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoev. — “Salohiyatli yoshlar ayol mehri, bilim va tajribasi mahsulidir” deya ta'kidlaydilar. Demak, oilada yosh avlodning tarbiyasi bilan bir qatorda oila totuvligida ayolning tutgan o'rni alohidadir.

Xalqimiz o'tmishiga nazar tashlasak, shunday bir haqiqatni anglaymizki, qachonki oila mustahkam va barqaror bo'lsa, shu jamiyat taraqqiy etgan. Shuning uchun xam oila masalasiga ajdodlarimiz e'zoz va e'htirom bilan, nihoyatda noziklik bilan munosabatda bo'lganlar. Oilani muqaddas deb bilishning yana bir sababi, u jamiyat ijtimoiy munosabatlarning muhim bo'g'ini bo'lish bilan birga, barcha

insoniy fazilatlarning shakllanishi maskani yoki, aksincha, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o‘chog‘i ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo‘lgani singari oilaviy munosabatlar masalalarida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirildiki, - bu oilani muhim ijtimoiy institut sifatida jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamladi, eng muhimi esa xalqimizning ming yillar qa‘ridan yashab kelayotgan urf – odatlari, qadriyatlar, demakki oila bilan bog‘liq an‘analarni tiklashga, yangi davrda yangi jihatlar bilan boyitishga imkon berdi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta‘kidlaganlaridek “...oila kichik bir Vatan, Vatan tinch bo‘lsa, barqaror bo‘lsa Vatan tinch bo‘ladi — Shunday ekan, oila bu jamiyatning bir bo‘lagi, bir Vatan, insoniy muhabbat ifodasi, insonni dunyoga keltirgan makon, ilk tarbiya o‘chog‘i, yurt boyligi va tayanchi, mehr muhabbat ramzi. Bu fuqarolardan oilani mustahkamlash, uni har bir a‘zosini vatanparvar, davlatimiz va yurtimiz uchun sidqidildan xizmat qiluvchi sodiq farzand qilib tarbiyalashni talab etadi. Respublikamizda oilani rivojlantirish global darajada, BMT ning barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalish bo‘yicha “Harakatlar Strategiyasi”ning Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustivor yo‘nalishi deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida belgilab berilgan. O‘zbekiston fuqarolarining oila va oilaviy munosabatlarga qarashlari milliy qadriyatlar va mahallaning oila hayotidagi o‘rni va roli bilan oilaviy udum va an‘analar bilan bog‘liq. Baxtli oilani ta‘riflashda ahloqiy va moddiy omillarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralda e‘lon qilgan farmoni : “Xotin – qizlarni qo‘llab – quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini takomillashtirishning chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PF t-5325 sonli farmoniga muvofiq, amalga oshirilayotgan faoliyat e‘tiborli, ammo hali oilaviy ajrimlar masalasida yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjudki bu ayni shu sohada izchil izlanishlarni talab etadi. Olib borayotgan faoliyat hali qoniqarli darajada emas. Sababi, bitta ajrim bo‘lsa ham uning mavjudligi ijtimoiy sohada erishgan yutuqlarimiz ahamiyatini tushiradi. Oilaviy ajrimlarning kelib chiqishi sabablari va turlar o‘rganilmoqda, ularning oldini olish bo‘yicha bir qator chora tadbirlar belgilanmoqda.

Bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirishda xotin –qizlarning alohida o‘rni bor albatta. Chunki, ayol oila otlig‘ hayot imoratining erkakdan keyingi ikkinchi buyuk ustunidir. Ma‘naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan

muqaddas islom dinimizda oilada xotin – ayol kishining o‘z eri oldidagi majburiyatlari sifatida quyidagilar sanab o‘tiladi:

1. Itoat. 2. Ozodalik. 3. Vafodorlik. 4. Ko‘rkam ko‘rinishda bo‘lishga intilish. 5. Erning mol – mulkini himoya qilishi. 6. O‘zini malomatlardan ehtiyot qilishlik. Bu kabi majburiyatlarni bajarishni qadimdan oq onalarimiz, buvilarimiz o‘zlariga sharaf deb bilishgan va sadoqat bilan, sidqidildan bajarishgan. Bu jiddiy masala hisoblangan, chunki kelin bo‘lib tushadigan qiz avvalo ikki oilani bog‘lovchi, quda – andachilikni ta‘minlovchi vazifani o‘tagan, kelinlar va ayollar unutmasligimiz kerakki, oilaning o‘zaro qon–qondoshligini, hamkorligi va madadkorligini ta‘minlovchi omillargina emas balki, oilalararo sulolaning davomiyligiga asos solinishida ham ayollar muhim rol o‘ynaydi.

Turmushga uzatilayotgan qiz to‘ygacha qiz, unashtirilgach qalqliq, to‘ydan so‘ng esa eri uchun xotin hisoblanadi. Bu turmush qurgan xar bir ayolning qismatiga dahldor bosqichlar qarindoshlik tuyg‘usini anglatadi. Muqaddas kitobimiz Qur‘oni karimning “Arof” surasining 189 – oyatida xotin–juftlik, orom-osoyishtalik, mehr-muhabbat va oqibatni anglatuvchi ma‘noda qo‘llanilganligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Ma‘lum bo‘lishicha, xotin tushunchasi uchta muddaoning jamlanmasi hisoblangan: birinchisi, erkakning orom – osoyishi, huzur – halovati, ham ma‘naviy, ham jinsiy qoniqishi, binobarin hayotdan lazzatlanishi hamkori. Bunda ayolning jamoli, zeboligi, hayo va ibosi, samimiyati va muhribonligi, g‘amxo‘ru – g‘amgusorligi, dilkashu-dilbandligi alohida ahamiyat kasb etganligi tufayli uni tanlashga e‘tibor kuchli bo‘lgan. O‘tmishda bu vazifani uylanayotgan yigitning ota – onasi bajargan bo‘lsa bugun bu masalani yoshlar bir – birini ko‘rib , uchrashib , bir – birini sinab hal qilmoqda.

Keyingi o‘rinlarda esa xotin asosan nasl qoldirish vositachisi sifatida ham qaralgan va buning evaziga o‘zi mansub qavm, elat yoki xalqning ko‘payishi va davomiyligini ta‘minlamoqdan iboratligi anglanilgan. Ammo bugungi ayrim yoshlarimizning bunday qadriyatlarga bepisand qarashlaridan oilaviy janjallar kelib chiqayotgani ham kuzatilayotgan holatdir. Kishilik jamiyatida oila paydo bo‘lganidan keyin yuzaga kelgan mehnat taqsimotida bola tarbiyasi ona zimmasiga tushganligi aniq. Chunki, ona bolasini olamga keltirguncha ham o‘z yuragi ostida ko‘tarib yuradi, yorug‘ dunyoga keltirgach shuning uchun ham farzand uning jonu –jahoniga aylanadi. Shuning uchun ham balki onalar farzandlari uchun har narsaga tayyor turar, o‘z jonidan kechishga, har qanday hatarni yenga olishga qodir katta kuch sohibasiga aylana olar. Bizda onalarni beshik tebratishi, xalq e‘tiroficha dunyoni tebratishga teng



ko‘riladi. Chindanda jahon tamaddumiga hissa qo‘shgan allomalarni ulug‘i-yu, kichikligidan qat‘iy nazar ona parvarishining hosilasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Muhamedova Qizlar iffati – baxt suvrati. Toshkent -1997 y.
2. D.Turdieva Adashgan — nozik hilqat|| Toshkent Mavraunnahr- 2016 y
3. A.Muxtorov Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari Toshkent Ma’naviyat -2015 y
4. O‘zbekistonda amaliy psixolog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. 236 b.



RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETINGNING AHAMIYATI

Mehribon Jumaniyazova Baxtiyarovna

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Raqamli marketing hozirgi kunga juda rivojlanib bormoqda bunga sabab uning qulayliklari juda katta . Siz tavarizni sotmoqchi bo'lsangiz u uchun ijara to'lab va kun uzog'i vaqtizni bekorga sarflamaysiz. Shu uchun ham raqamli marketingning keng rivojlanib bunga misol qilib Amazon kampaniyasini keltirishimiz mumkin. Raqamli marketing dunyo bozorlarini egallab bormoqda.

Kalit so'zlar:Raqamli marketing, elektron tijorat, menejment, affiliate, elektron biznes, raqamli strategiya.

Marketing, boshqa har qanday biznes funksiyalaridan ko'ra ko'proq mijozlar bilan shug'ullanadi. "Marketing" so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda "bozordagi faoliyat", "bozor faoliyati", "bozorni tadqiq qilish" ma'nosini bildiradi. Marketingning qachon paydo bo'lganligi haqida ko'pgina fikrlar mavjud. Agar biz marketingni kelib chiqishini reklama bilan bog'laydigan bo'lsak, milloddan avvalgi 3000 yilda Vavilonda birinchi marotaba qochib ketgan qulni tutib kelishi uchun mukofot e'lon qilingan va ommaga jar solishgan. Marketingning birinchi elementlari (og'zaki reklama, almashuv shakllarini kelishish) odamzot monopol natural xo'jaligidan xalos bo'lib, savdoning ilk shakllari paydo bo'lgan paytdan boshlab vujudga keldi [1]. Vaholanki, agar reklama marketingning muhim funksiyasi ekanligini tan olsak, bundan uch ming yil ilgari Vavilonda qochoq qullar evaziga mukofot: ikkita ho'kiz va'da qiluvchi maxsus belgilar mavjudligini yodga olish joiz. Boshqa so'z bilan aytganda, marketing xaridorga u xohlaydigan narsani ta'minlab, bunda oqilona narxni belgilab va tovarlarni unga qulay bo'lgan joyda va kerakli miqdorda xarid qilish imkoniyatini berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkinligiga hammani ishontiradi. Qanday bolmasin marketing amaliy-ilmiy fan sohasi sifatida AQShda qollanila boshladi. U yerda bu vaqtda "ommaviy iste'mol jamiyati" shakllanayotgan edi. Shuningdek, insoniyat tarixida birinchi bor iste'molchilik boyliklarining asosiy miqdori, shu jumladan, uy joy, avtomobillar, uy-ro'zg'or texnikasi, keyinchalik esa ta'lim va sog'liqni saqlash iste'mol krediti yordamida bo'lsa ham, aholining keng qatlamlari uchun ochildi. Eng muhimi, oddiy fuqarolarda haqiqiy tanlash imkoniyati qaysi tovarlarni va qanday miqdorda iste'mol qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Hozirgi zamon marketing adabiyotlarida marketingning juda ko'p ta'riflari beriladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: "Marketing firma tadbirkorlik faoliyatining hamma tomonlarini boshqarish jarayonidir" (P.Druker. Menejment amaliyoti.1973) "Marketing raqobat sharoitida firma ning strategiyasi va taktikasini belgilaydigan zamonaviy biznes falsafasidir" (Marketing asoslari. AQSh, 1984) 244 "Marketing bu ijtimoiy va boshqaruv jarayoni bo'lib, unda yakka shaxslar yoki tashkilotlar boshqalar bilan qiymat yaratish va ayirboshlash orqali o'zlari hohlagan va ehtiyojlaridagi narsani qo'lga kiritishadi" Ba'zilar marketingni reklama qilish va sotish, deb tushunadilar. Ammo marketing bularni o'z ichiga qamrab oluvchi keng tushuncha hisoblanadi [2].

Marketingni reklama qilish va sotishdan farqlashning eng yaxshi yo'li marketing umumiy doira, desak doira ichida biz bir necha segmentlarni ajratib olamiz. Bu segmentlar reklama qilish, marketing tadqiqotlari, media rejalashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar, tovar narxini belgilash, iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash, sotish strategiyasi va jamoatchilikni jalb qilishdan iborat. Reklama va sotish faqatgina doiraning bir bo'laklari xolos. Marketing faoliyati oldiga qo'ygan maqsadga erishishi uchun bu elementlar nafaqat alohida, balki hammasi birgalikda ishlashi kerak. Ko'rib turibsizki, marketing juda serqirra jarayon. Bu bozor munosabatlari subyektlarining, shuningdek, ta'minotchilar, amaliy iqtisodchilar, olimlar, butun tashkilotlar, hatto hukumat idoralarining bozor falsafasi, fikrlash strategiyasi va taktikasi, faoliyatidir. So'nggi vaqtlarda marketing predmetini tushunishga ikki xil yondashuv ma'lum bo'lib qoldi: "kengaytiruvchi" va "cheklovchi". Kengaytiruvchi nuqtayi nazariga ko'ra marketing predmetiga ijtimoiy iqtisodiy va texnologik jarayonlarning mikroiqtisodiy muammolaridan boshlab tor moliyaviy doiradagi muammolargacha qariyb hamma spektri kiritiladi. Bunday tushunchaning namunasi bo'lib "Izohli atamalar lug'ati" beradigan ta'rifni ko'rsatishimiz mumkin: "Marketing- firma mahsulotining maksimal sotilishi, eksport mahsulotlarining maksimal samaradorligiga erishish va bozor ulushini kengaytirishga yo'naltirilgan firma faoliyatini boshqarish va tashkil qilish tizimidir". Cheklovchi yondashuv fransuz marketing maktabida qo'llanadigan ta'rifda yaxshi aks ettirilgan [3].

Unga ko'ra: "Marketing - bu sotishni yaratish va iste'molchilar talabini sotuvga tovarlar va xizmatlarni ularning talablariga mos holda chiqarish orqali qondirish maqsadida o'tkaziladigan chora-tadbirlar yig'indisidir". Marketing faoliyatiga o'tish avtomatik tarzda ro'y berishi mumkin emas ko'pchilik O'zbekiston korxonalarida juda katta tayyorgarlik ishlariga muhtoj. Marketing uslublari asosida ishlarni amalga oshirishning yagona universal sxemasi mavjud emas. Marketing yo'nalishi va

mohiyati korxonaning faoliyati xususiyatlariga, uning ichki imkoniyatlari va u faoliyat ko'rsatayotgan tashqi sharoitlarga bog'liq holda belgilanadi. Tovarning bozor muvaffaqiyatini ta'minlash bo'yicha faqatgina uni sotish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar odatda, chegaralangan natijalarga olib keladi. Shuning uchun korxonaning istiqbolli tovarlarni yaratish bo'yicha g'oyalarni to'plashdan tortib bozor imkoniyatlarini yo'qotgan tovarlarni o'z vaqtida ishlab chiqarishdan olishgacha bo'lgan butun faoliyati marketingga bo'ysundirilgan bo'lishi kerak. Marketing yuqori malakali xodimlar shtatini talab qiladi. Fikrlamaydigan ijro etuvchilar o'rniga ijodiy yondashadigan, qo'yilgan vazifalarni yechishning eng samarali yo'llarini izlashga yo'naltirilgan tadbirkor kishilar kerak. Marketing tovar ishlab chiqaruvchilarga bozorga mo'ljallangan xatti-harakatlarning aniq istiqbolini beradi, ushbu xattiharakatlarga maqsadli va muvofiqlashtirilgan tus berishga imkon yaratadi [4].

Hozirgi gloabllashuv davrida marketing ham rivojlanib bormoqda. Boshqa ko'plab sohalar singari marketing ham raqamli tizimga o'tib bormoqda. Natijada "Raqamli Marketing" tushunchasi paydo bo'ldi. Raqamli marketing nima? Raqamli (raqamli) marketing - bu raqamli kanallarning turli shakllaridan foydalanish orqali brend yoki mahsulotni ilgari surish usuli. Ba'zida raqamli marketing onlayn marketing bilan aralashib ketadi. Ammo raqamli marketing butun dunyo bo'ylab Internetdan tashqariga chiqadi, shuningdek: raqamli televizor; 245 mobil ilovalar; interaktiv ekranlar. Shunday qilib, raqamli marketing reklamada raqamli texnologiyalardan foydalanishga kompleks yondashuv bilan ajralib turadi. Afzalliklari Raqamli marketing an'anaviy marketingga nisbatan bir qator muhim afzalliklarga ega: Kengroq auditoriya bilan muloqot qilish va hatto kutilmagan joylarda ham mijozlarni topish imkonini beradi. Bu qisqa vaqt ichida mahsulot va kompaniya haqidagi ma'lumotlarni ko'p sonli iste'molchilarga etkazish imkoniyatini beradi, boshqa strategiyalar esa katta vaqt xarajatlarini talab qiladi. Mijozlar bilan muloqot o'rnatishga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar mijozlarga ko'proq ta'sir ko'rsatishga yordam beradi, bu esa mahsulotga qiziqish ehtimolini oshiradi. Raqamli reklama boshqa strategiyalarga qaraganda arzonroq. Ta'sir samaradorligini shaffof kuzatish. Raqamli marketing turlari Raqamli marketing murakkab intizom sifatida mijozlarni jalb qilish va ushlab turishning bir necha usullariga ega. Raqamli marketing turlariga quyidagilar kiradi:

- Qidiruv tizimlarida sahifani targ'ib qilish;
- Kontekstli reklama;
- Elektron pochta xabarnomalari;

Virusli reklama;

Sheriklik marketingi. R

raqamli marketing vositalari. Raqamli marketing vositalari 3 ga bo'linadi: Asosiy, Murakkab va Oflayn. Raqamli marketing asboblari to'plami xilma-xil bo'lib, ham taniqli asosiy va ilg'or vositalarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi raqamli vositalardan oflayn rejimda foydalanish mumkin.

1. Raqamli marketingning asosiy vositalariga quyidagilar kiradi: Kontent yaratish Ochiq sahifasi; Ilovalar; Elektron pochta xabarnomalari.

2. Murakkab raqamli marketing vositalari quyidagilardir: Affiliate - bu Internetda biznesni ilgari surish vositasi bo'lib, uning mohiyati mijozga trafikni taqdim etish va muayyan harakat uchun to'lovni olishdir. Influencer marketingi sahifani targ'ib qilishda obro'li shaxsdan foydalanishga asoslangan. Tomoshabinlar tomonidan mahsulot haqidagi tasavvur o'zgarmoqda, buning natijasida mijozlar o'zlari mahsulotni qidirmoqdalar. 246 Samarali yechim - bu bir nechta vositalarning kombinatsiyasi. Bu imkon qadar keng auditoriyani qamrab oladi.

3. Oflayn raqamli marketing vositalariga bevosita Internetga ulanmagan vositalar kiradi: Turli manbalarda QR kodlari; Sms va Mms Messenjerlar orqali pochta jo'natmalari xarid qilishda yordam beradigan interaktiv ekranlar; Ko'rgazma LCD stendlari. Raqamli strategiya - bu raqamli texnologiyalarni jalb qilgan holda kompaniya va mahsulotni ilgari surish uchun maqsad va vositalarni aniqlash. Strategiyaning maqsadi potentsial xaridor bilan aloqa o'rnatish va reklama kanallari orqali brendga qiziqishni jalb qilishdir. Strategiyaning maqsadi aniq raqamlar shaklida taqdim etilishi kerak. Masalan, brend sahifalari trafiginin 50% ga oshiring. Raqamli strategiyaning bir qismi sifatida maqsadli auditoriya va raqobatdosh brendlar tahlil qilinadi. Raqobat ustunliklari aniqlanadi, rag'batlantirishning maqbul kanallari va usullari tanlanadi. Raqamli marketing va elektron biznes Iste'molchilari World Wide Web imkoniyatlaridan faol foydalanayotgan ko'plab brendlar uchun raqamli marketing strategiyasi butun korporativ strategiyaning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu integratsiya investitsiyalarning daromadlilikini oshiradi [5].

Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish brend va mijozlar o'rtasidagi o'zaro aloqani kengaytiradi va chuqurlashtiradi, bu esa savdo hajmini oshiradi va sodiqlikni oshiradi. Virusli effekt va arzon reklama kanallari reklama xarajatlarini kamaytiradi. Raqamli reklama an'anaviy marketing qonunlarining ko'pinisi buzadi. Agar oflayn reklama iste'molchi talabini yaratsa, raqamli reklama odatda uni qondiradi. Bunga maqsadli auditoriyaga e'tibor qaratish orqali erishiladi. Elektron tijorat marketingi va raqamli marketing o'zaro eksklyuziv emas. E veb-saytlar



mahsulotni ilgari surish va o'z biznesini rivojlantirish uchun yuqoridagi raqamli kanallardan foydalanishlari mumkin. Ushbu elektron tijorat marketing bo'yicha qo'llanma bugungi kunda mavjud bo'lgan barcha raqamli ommaviy axborot vositalarini o'rganib chiqadi. Elektron tijorat marketologlari mehmonlarni jalb qilish va onlayn xaridlarni osonlashtirish uchun ijtimoiy media, raqamli tarkib, qidiruv tizimlari va elektron pochta kampaniyalaridan foydalanishi mumkin. Elektron tijoratda tushunchalar juda ko'p bo'lib, ular ichida elektron biznes degan tushuncha ham bor. Ba'zi odamlar savdo atamasini faqat biznes sheriklar o'rtasida amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimlarini tavsiflash deb bilishadi. Agar ushbu savdo ta'rifi ishlatilsa, Elektron tijoratda tushunchalar juda ko'p bo'lib, ular ichida elektron biznes 247 degan tushuncha ham bor. Ba'zi odamlar savdo atamasini faqat biznes sheriklar o'rtasida amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimlarini tavsiflash deb bilishadi [6].

Xulosa qilib, Hozirgi kunda raqamli marketing dunyoni egallab bormoqda. Bizvaqtimizni sarflamasdan o'zimizga yoqqan narsaga buyurtma berib, uy manzilimizni kiritib hisob raqamiga pul tashasak, buyurtmamiz bir necha kunda yetib keladi. Buning qulaylik taraflarini aytisak juda ko'p.

Elektron tijoratda aslida faqat unday emas. Elektron tijoratda har xil bizneslar qilishimiz mumkin. Biznesni rivojlantirishga turli xil tushunchalar juda ko'p bo'lib, ular ichida elektron biznes degan tushuncha ham reklamalardan foydalanishimiz mumkin bu ham katta foyfa beradi. Hozirgi kunda barcha narsa raqamlashib bormoqda. Yo biz raqamli iqtisodiyotga o'tamiz yoki rivojlangan davlatlar safiga qo'shila olmaymiz bor. Ba'zi odamlar savdo atamasini faqat biznes sheriklar o'rtasida amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimlarini tavsiflash deb bilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ait Yassine, Fatima (2023). The Effect of Digital Marketing Strategy on Customer and Organizational Outcomes. *Marketing and Management of Innovations*. 13. 45-54. 10. 2022 4-05.
2. Khurramov O.K, Saidova F.K. Social media-marketing –a forceful tool fortourism industry/ *European science*. -2019 – 7. S.49.
3. Sharopova, N. (2022). O'zbekiston tadbirkorlar sub'ektlari faoliyatida crm tizimlaridan foydalanish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 10(3), 339-347.
4. A.X. Shoalimov (1-3), SH I.Ilhamov (7-14boblar), SH. A. Tojiboyeva (4-5 boblar). *Iqtisodiy tahlil va audit*. Darslik –T.: “Sano-standart”, 2017-yil



5. Sh. Shohmonov , M. Rahmatov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.- O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005- yil
6. Ishmuhammedov A. E.O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik.



CHET TIL O‘RGATISH JARAYONIDA NAZORATNING AHAMIYATI

Go‘zal To‘rayeva Tojiddinova

Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet til ta‘limini sifatli va samarali amalga oshirishda nazoratning o‘rni haqida fikr yuritiladi. Nazorat obyekti, nazoratning vazifasi va maqsadlari aniqlanadi. Nazoratning turlari, shakllari va usullari yoritiladi. O‘quvchilarga chet tilni o‘rgatishda nazoratning zarurligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Chet til, nazorat, bilim, ko‘nikma, malaka, nazorat ob‘yekti, nazorat turlari, nazorat shakllari, nazorat usullari.

Annotation: In this article is discussed about the role of control by accomplishing foreign language teaching perfectly and productively. The types, forms and methods are expounded. It is analysed how control is vital in teaching a foreign language to students.

Key words: Foreign language, control, knowledge, skills, competence, object of control, types of control, forms of control, methods of control.

Insoniyat hamma davrlarda ham o‘zi yashayotgan, shuningdek, o‘zidan ilgari mavjud bo‘lgan dunyo va xalqlar haqida yaxshiroq bilishga intilgan. Bu istak uni notanish madaniyatlar haqida ma‘lumotlar yig‘ishga, ularni tahlil qilishga undadi. Bu esa o‘zga(chet)tilni bilish ehtiyojini keltirib chiqardi va bu ehtiyoj hozirgi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Mamlakatning dunyo hamjamiyatiga kirib borishi, fan va texnika rivojlangan yangi davrda dunyo mamlakatlari bilan tengma-teng raqobatga kirisha olishi uchun bir nechta chet tillarni mukammal bilishni talab etadi.

Bu borada yurtimizda ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan chet tillarning o‘qitilishiga alohida e‘tibor berilmoqda. Chet tillarni o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, kadrlarni xalqaro talablarga javob beradigan qilib tayyorlashni ko‘zda tutadigan ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilindi. Ularga ko‘ra, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi o‘z kasbiga oid chet tilidagi adabiyotlarning asl nusxasini o‘qiy olishi, o‘qilgan materialni tushunishi va uni o‘z kasbida qo‘llay olishi lozim. Bu esa o‘z navbatida chet tilini mukammal o‘rganishni taqozo etadi. Buyuk nemis shoiri Gyote aytganidek, “Kim chet tillarini bilmasa, u o‘z ona tilini ham bilmaydi”.



Chet tilini o'qitishni sifatli va samarali amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida turli zamonaviy va sinalgan metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar bilan bir qatorda chet tili ta'limini yanada yaxshilash uchun o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z vaqtida nazorat qilish ham katta ahamiyatga ega. Dastlab "bilim", "ko'nikma", "malaka" tushunchalarining mohiyati va bir-biridan farqli jihatlarini aniqlab olish zarur.

Bilim-bu kishilarning tabiat, jamiyat va undagi biror sohaga oid egallagan ma'lumotlarning inson tafakkurida aks ettishi.

Ko'nikma - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

Malaka - (qobiliyat, iste'dod, xususiyat) muayyan kasb, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat.

Yuqoridagi izohlardan quyidagicha xulosa qilish mumkin: Chet tilidagi bilim deganda, biror bir xorijiy til, uning leksikasi, grammatikasi va fonetikasi haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish tushuniladi. Ko'nikma esa o'sha nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatidir. Malaka deganda, egallangan ko'nikmalar juda yaxshi o'zlashtirilib, mahorat darajasiga yetishishi tushuniladi. Odatda chet tili nazariy emas, balki amaliy maqsadda o'rganiladi. Bu degani, biz xorijiy tilni shu tilda nazariy bilimlarga ega bo'lish uchun emas, balki o'sha tilda muloqot olib borish uchun o'rganamiz. Demak, chet tilini egallaganlik darajasi tekshirilganda, bilim emas, balki egallangan ko'nikma va malakalar tekshiriladi. Ko'nikmalarni tekshirish paytida leksik, grammatik talaffuzni o'zlashtirish saviyasi, nutq faoliyati turlarida ularning qo'llanilish darajasi nazorat qilinadi. Malakalar tekshirilganda esa nutq faoliyati turlaridan muloqot vositasi sifatida foydalana olish me'yorlari o'lchanadi.[2,256]. Demak, chet tilida nazorat ob'yekt deganda, egallangan ko'nikma va malakalar tushuniladi. Tekshiriladigan narsa, hodisa ma'lum bo'ldi. Keyingi o'rinlarda tekshirishning vazifasi va maqsadi haqida so'z yuritamiz.

O'quvchilarning chet tilini qay darajada o'zlashtirayotganligini bilish va bu jarayonda yuzaga kelayotgan qiyinchilik hamda muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish uchun ham nazorat zarur. Nazorat o'zi nima? Nazorat- ishning, narsaning ahvoli, borishi, kishining yurish-turishini kuzatish, tekshirish, taftish qilish.[2, 253]. Nazorat qilish- ta'lim oluvchining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga asoslanib, unga keyingi o'qitish jarayonini qanday tashkil qilish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga yo'naltirishdir. Demak, nazorat ta'lim jarayonining asosiy komponentlaridan biri. Nazorat o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi "Qayta aloqa"

vositasi bo‘lib, u yoki bu til materialini nutq faoliyati turlarining birida ishlatish darajasini, u o‘quvchilar uchun qanday qiyinchilik tug‘dirishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Didaktik adabiyotlarda aytilishicha, tizimli ravishda o‘tkaziladigan nazorat o‘rgatish xarakteriga ega bo‘lib, u materialni xotirada saqlashga va hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni yo‘qolmasligiga yordam beradi. [1,35]. Demak, nazorat paytida ham ta‘lim beriladi, o‘rgatiladi. Bu nazoratning o‘rgatuvchilik funksiyasidir. Bundan tashqari nazoratning aniqlash, to‘g‘rilash, ogohlantirish, intiltirish va umumlashtirish kabi funksiyalari ham mavjud [3,206].

Nazorat- bu o‘quvchilarning chet tilini qay darajada o‘zlashtirayotganligini tekshirishdir. Aynan nima tekshiriladi? Yuqorida tilga olinganidek, chet tilida egallangan ko‘nikma va malakalar tekshiriladi. Ularga qo‘yilgan talablar va me‘yorlar mavjud. Bu talablar chet tili o‘qitishning turli bosqichlarida turlicha bo‘lgani uchun, nazorat qilishda ularni hisobga olish kerak. Nutq faoliyati turlarini amaliy egallash ko‘rsatkichlari asosiy va qo‘shimcha mezonlar bilan o‘lchanadi: asosiy mezonda faoliyatning quyi chegarasi, qo‘shimcha mezonda esa yuqoriroq darajasi aniqlanadi. Chet tilda nutq faoliyati turlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlari metodika ilmida aniqlab berilgan [2,256]. Nazorat qilishda ana shu mezonlarga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Nazoratning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Joriy (kundalik nazorat) 2. Mavzuviy nazorat 3. Oraliq nazorat 4. Yakuniy nazorat

Joriy nazorat chet tili ta‘limida keng tarqalgan bo‘lib, ta‘lim samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim omil sanaladi. Bu nazoratga ko‘ra o‘quvchi har kuni so‘rab boriladi.

Mavzuviy nazorat chet til ta‘limida dolzarb bo‘lib, har bir mavzu yakunida o‘tkaziladi. Bu o‘quvchi tomonidan aniq mavzuning o‘zlashtirib olinishi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Oraliq nazorat ma‘lum mavzulardan bir nechtasi yoki yarim yillik yakunida o‘tkaziladi. Natijada o‘quvchilarning mavzu yoki mavzu to‘plamlarini o‘zlashtirib olish darajalari aniqlanadi.

Yakuniy nazorat o‘quv yili tugagandan so‘ng o‘tkaziladi va o‘quvchining yil bo‘yi olgan bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanish darajasi belgilanadi [3,210].

Tizimli ravishda o‘tkazilgan nazorat o‘quvchilarni har doim o‘z ustida ishlashga, darsga doim tayyor turishga, o‘tilgan mavzuni yoddan chiqarmay, uzoq muddat xotirada saqlashga yordam beradi. Bularning barchasi o‘quvchilarda doimiy dars



tayyorlash va o‘tilganlarni takrorlab turish ko‘nikmasini hosil qiladi. Bu ko‘nikma ta‘lim jarayoniga katta yordam beradi. O‘qitishni osonlashtiradi.

O‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Individual, yolg‘iz, yakka nazorat, frontal, yoppasiga nazorat
2. Og‘zaki nazorat, yozma nazorat
3. Bir tilli yoki ikki tilli nazorat [3,210].

Turli nutq faoliyatlari uchun nazoratning ham har xil shakllaridan foydalanish mumkin. Bir vaqtning o‘zida bir nechta nazorat shakllarini ham qo‘llasa bo‘ladi. Bu har bir o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq va nazorat olib borilayotgan guruhning o‘zigaxosliklaridan kelib chiqib tanlanadi.

Individual nazorat har bir o‘quvchiga alohida yondashishga yordam bersa, yoppasiga nazorat bir vaqtning o‘zida hamma o‘quvchini baholash imkonini beradi. Bu vaqtni tejashga yordam beradi. Tejalgan vaqt esa xatolarni to‘g‘irlashga sarflanadi. Og‘zaki fikr bayon etish malakalari og‘zaki tarzda tekshiriladi. Unda o‘quvchining chet tilda fikr bildirishga harakati (o‘z-o‘zidan gapirib ketishi), gapirish tezligi, to‘xtab/to‘xtamay gapirishi, nutq vaziyatiga muvofiq/nomuvofiq fikr bayon etishi kabilar nazorat qilinadi. [2,262]

Yozma nazoratning ham birmuncha afzalliklari mavjud:

1. Yozma shaklda nazorat qilinganda, bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni tekshirish mumkin.
2. Yozma ishlarni og‘zaki javoblarga nisbatan ko‘rib chiqish ancha qulay.
3. Yozma ishlardagi xatolarni tavsiflash va tahlil qilish qulaydir [3, 211].

Nazorat jarayonida ona tilining ishtiroki ham ta‘qiqlanmaydi. Bu esa o‘quvchiga o‘zlashtirilayotgan mavzu yoki matnning ayrim murakkab joylarini yaxshiroq tushunishga va aytib berishga yordam beradi.

Chet til mashqlar orqali o‘rganiladi. Nazorat vaqtida ham turli mashqlardan foydalaniladi. Bu nazoratning usullari deyiladi. Qanday mashqlarni tanlab olish tekshirilayotgan faoliyat turiga bog‘liq.

Nazoratning barcha turlari, shakllari va usullari birgalashib, bitta maqsadni ko‘zda tutadi: O‘quvchilarning chet tilidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini egallaganlik darajasini aniqlash, bu jarayondagi muammo va kamchiliklarni topish va bartaraf etish, bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda samarali usullardan davomli foydalanish. Nazorat vaqtida ham ta‘lim berib, o‘quvchilarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarda xatolardan cho‘chimaslik, aksincha, ularni to‘g‘irlash uchun ko‘proq va yaxshiroq o‘qishga turtki berishdan iboratdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov Sh, Ismoilov A. Chet tili o'qitish metodikasi fanidan ma'ruzalar. Andijon, 2007.
2. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 1996.
3. Saydaliyev S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. Namangan, 2004.



CONTENTS

| No | Authors and topics of the article | Pages |
|----|--|-------|
| 1 | <i>Quvonchbek Salimjon o'g'li Qo'shboyev</i> AMIR NASRULLOXON SHAXSIYATI: UYDIRMA VA HAQIQAT | 4-7 |
| 2 | <i>Xojabay Kabulov Aldashovich</i> <i>Gulzira Abatbaeva</i> KORRUPSIYA DAVLAT VA JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA TO'SIQ BO'LAYOTGAN XAVFLI JINOYATDIR | 8-15 |
| 3 | <i>Yulduz Murotova Fakhridin kizi</i> TRENDS OF BOOK PUBLISHING IN UZBEKISTAN | 16-18 |
| 4 | <i>Sevinch Hamroyeva Hamroyevna</i> REPORTING ON FINANCIAL RESULTS: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE | 19-21 |
| 5 | <i>Anvar Esanov Shuxratovich</i> BIR NECHA JINOYAT SODIR ETGANLIK TUSHUNCHASI VA BIR NECHA JINOYAT SODIR ETGANLIK UCHUN JAZO TAYINLASH TARTIBI | 22-29 |
| 6 | <i>Mehribon Jumaniyazova Baxtiyarovna</i> XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA | 30-35 |
| 7 | <i>Nodira Shodiyeva Normamatovna</i> <i>Nigina Raxmanova Aminjanovna</i> AYOLLARNING OILA MUSTAHKAMLIGIDA TUTGAN O'RNI | 36-39 |
| 8 | <i>Mehribon Jumaniyazova Baxtiyarovna</i> RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETINGNING AHAMIYATI | 40-45 |
| 9 | <i>Go'zal To'rayeva Tojiddinova</i> CHET TIL O'RGATISH JARAYONIDA | 46-50 |



| | | |
|--|-------------------------------------|--|
| | <i>NAZORATNING AHAMIYATI</i> | |
|--|-------------------------------------|--|



ESLATMA!

“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to’g’riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!

The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 8
31. 07. 2023

©Jurnal hajmi: 53 bet.

©Farg’ona viloyati, O‘zbekiston Respublikasi

©<http://science-shine.uz/>